

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Jismoniy madaniyat fakulteti
“Jismoniy madaniyat va sportni o`qitish metodikasi” kafedrası
Usmonov Xusan

MILLIY KURASH RIVOJLANISHIDA QADIRIYATLARNING O`RNI

«5141900-Jismoniy madaniyat» ta`limy o`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____ kat. oqit O.E.Toshmurodov

Bitiruv malakaviy ishi “Jismoniy madaniyat va sportni o`qitish metodikasi” kafedrasida
bajarildi.

Kafedraning 2013_yil “__” _____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayonnoma № _____).

Kafedra mudiri _____ kat. Oqit O.E.Toshmurodov.

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 2013_yil “__” _____dagi majlisida himoya
qilindi va _____ ball bilan baholandi (bayonnoma № _____).

YaDAK raisi: _____

MAVZU: MILLIY KURASH RIVOJLANISHIDA QADIRIYATLARNING O'RNI

Reja

Kirish

I-BOB. Milliy kurash tarixi

1.1. Kurashning rivojlanish tarixi

1.2. Milliy kurashning taraqqiyotida muhim bosqichlar

1.3. Milliy kurashning rivojlanishida xalq bohodirlarining o'rni

II-BOB. Kurash milliy qadriyatimiz, jismoniy madaniyat ta'lim tarbiyasida undan foydalanish.

2.1. Yosh kurashchilarni tarbiyasida milliy qadriyatlarning tutgan o'rni.

2.2. Jismoniy madaniyat va milliy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligi.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqillik sharofati va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning jonkuyarligi tufayli o'zbek kurashi olamshumul mavqyega ega bo'ldi. Ayniqsa, 1992 yilning 14 aprelida O'zbekiston Prezidenti o'zbek kurashining jonkuyarlaridan biri Komil Yusupovni suhbatga chorlagani kurashimiz istiqbolini belgilab berdi.

Kurashni sport turi sifatida rivojlantirish, dunyo miqyosida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish hamda jahonga olib chiqish to'g'risidagi fikr - mulohazalar Komil Yusupovda 1980 yillarda tug'ilgandi va bu g'oya izchillik bilan ilgari surildi. Shu yillar davomida u nomdor polvon sifatida respublikamizda o'tadigan to'ylarda – «davra kurashi»da faol ishtirokichi bo'lish bilan bir vaqtda, milliy sportimiz an'anasi, udumlari va urf – odatlarini o'rganishga ham qiziqardi. Shuning uchun ham K.Yusupov tomonidan milliy kurashni jahon arenasiga olib chiqish mumkinligi to'g'risidagi g'oya ilgari surildi. Bir necha yillik izlanishlar natijasida ular tomonidan yaratilgan yangi qonun-qoidalar 1991 yil 14-15 iyunda chaqirilgan O'rta Osiyo va Qozog'iston ilmiy noyeferensiyasida muhokama qilindi. 2 kunlik qizg'in munozaradan keyin qoidalar hakam va kurashchilarning kiyimlari tasdiqlandi. Prezidentimiz tomonidan O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinganidan 17 kun o'tgach, kurash qoidasining asosiy qismi «Sport» gazetasining 1991 yil 17 sentyabr sonida e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida «Xalq harakatlari va sport o'yinlari bayramini tashkil etish o'tkazish» (tavsiyanoma, Toshkent, 1992 yil) maqolalar to'plamida kurashning yangi qoidalari to'laligicha ta'riflab berildi. 1992 yilning may oyida u «Milliy kurash qoidalari» (Toshkent, 1992 y.) nomli maxsus qo'llanma sifatida chop etildi.

Kurash qoidasida polvonlarning ijobiy harakati asosan «Halol», «Yonbosh», «Chala» atamalarini ishlatish bilan baholanadi. Bir marotaba ko'rgan tomoshabinu polvonlar bu kurash qoidasini osongina va tez o'zlashtirib oladi. Shu tufayli K.Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro kurash qoidasi qisqa vaqt ichida kurash mutaxassislariga, murabbiylarga, hakamlarga, eng asosiysi kurash muxlislariga va xalq ommasiga ma'qul tushdi. Bulardan tashqari, unda davra kurashi an'alarini e'tiborga olish natijasida sport tarixida birinchi marotaba kurash qoidasida 36 yoshdan 80 yoshgacha va undan kata yoshdagi polvonlarning vazn toifalari kiritildi. Bu esa kurashning obro'-e'tiborini juda ham ko'tarib yubordi. Chunki 35-40 dan kata yoshdagi polvonlar kurashdan mutloq umidini uzib, uzoqlashib ketgandilar.

1991 yil 7-10 avgust kunlari Shahrisabz tumani, Miroqi oromgohida O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalarining polvonlari ishtirokida katta kurash sayli o'tqazildi. Bu kurash sayli oldingi musobaqalardan tubdan farq qildi. Chunki unda polvonlar mutloq yangi bo'lgan qonun-qoidalar asosida kurashishdi. Ana shu yangi qonun-qoidalar asosida 1992 yildan boshlab nufuzli bellashuvlar boshlanib ketdi. Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov o'tmishda yashab o'tgan barcha pahlavonlar va ulug' allomalarning ruhlarini shod etishni Kurash bo'yicha halqaro turnirlar o'tkazish bilan boshlagan edilar. Qorako'lda Tursun ota, Shahrisabzda Amir Temur, Surxandaryoda At-Termiziy, Buxoroda Bahouddin Naqshband, Andijon Bobur Mirzo, Xorazmda Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlab Prezident sovrini uchun o'tkazilgan halqaro turnirlar o'zbek kurashining yuksak darajasiga ko'tarilishida, sport olamiga yangi tur bo'lib, kirishiga kata hissa qo'shdi, Chunki kurash ilk musobaqalaridayoq jozibadorligi va jangovorligi, go'zalligi va halolligi bilan barcha ishtirokchilarning, xorijiy mutaxassislarning mehrini qozondi.

Milliy sport turini dunyo sportiga aylantirish uchun mamlakatimizda tashkil etilgan bu bellashuvlar kamlik qilardi. Albatta, shuning uchun ham Janubiy Koreya (1992 yil), Kanada (1993), Litva (1993), Yaponiya (1994), Irlandiya (1997),

Hindiston (1995), Atlanta (1996), Moskva (1998), Fransiya va Irlandiyada o'tkazilgan yirik sport anjumanlarida to'plangan mutaxassis va muxlislarga tashabbuskorlar tomonidan o'zbek kurashi haqida atroflicha ma'lumotlar berildi, ko'rgazmali chiqishlar namoyish etildi.

Tinimsiz mehnat, ko'plab izlanish va sa'y-harakatlar bekor ketmadi. 1998 yilning 6 sentyabr sanasi O'zbek kurashining bir necha ming yillik tarixi sahifalariga olamshumul voqyea yuz bergan kun sifatida zarhal harflar ila bitildi. Lotin Amerikasi, Yevropa va Osiyo qit'asining 28 ta davlatidan kelgan vakillar ishtirokida Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis kongressida Kurash Halqaro Assosiasiyasi (KXA) tuzilganligi, xalqimizning milliy qadriyati «Kurash» nomi bilan jahon maydoniga chiqqanligi e'tirof etildi.

Xalqning qadim qadriyati, ori va g'ururi bo'lgan kurashning jahonga yuz tutishini har tomonlama qo'llab-quvvatlagan O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Xalqaro Assosiasiyasining doimiy Faxriy Prezidenti etib saylandi. Shu kongressning o'zida HKA ning Ijroiya qo'mitasi tashkil qilindi. O'zbek kurashining K.Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan qonun-qoidalar halqaro qoidalar sifatida bir ovozdan ma'qullandi va K.Yusupov Assosiasiya Prezidenti etib saylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1999 yilning 1 fevralida «Xalqaro kurash assosiasiyasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

Bugungi kunda dunyoning 5 qit'asidagi 100 dan ortiq mamlakatlarda, jumladan, Kanada, Boliviya, Braziliya, Janubiy Afrika Respublikasi, Buyuk Britaniya, Vengriya, Turkiya, Hindiston, Shri-Lanka, Ero, Yaponiyada Kurashning minglab ixlosmandlari bor. Hatto O'zbekiston uchun «g'aroyib» sanalgan Dominikan Respublikasi, «»Paragvay, Ekvador. Zambiya, Nigeriya, Mavrikiya kabi davlatlar zo'r qiziqish va ishtiyoq bilan kurash usullarini o'rganishga harakat qilishmoqda.

Amerika, Afrika, Yevropa, Osiyo va Okeaniya qit'alarida mintaqaviy konferensiyalar tashkil etilgan. Ular bu ommabop qadimiy sport turini targ'ib qilish uchun ayni damlarda o'z faoliyat doiralarini kengaytirmoqdalar.

Shunday qilib ta'kidlash mumkinki, Kurash dunyo sivilizasiyasiga beqiyos hissa qo'shgan, avlodu ajdodlardan bizgacha yetib kelgan ma'naviy meros – katta bir xazina. Bux azina bugun farzandlar tarbiyasida muhim omil bo'lmoqda. Sayyoramizning turli qit'a va yurtlarida istiqomat qiluvchi ne-ne xalqlar, elatlar Kurashning jozibasiga, uning insonparvarlik, baynalminallik, bag'rikenglik g'oyalariga mahliyo bo'lib, sevimli sport turi sifatida qabul qilmoqdalar.

Har qanday sport turidan Olimpiya, Jahon chempionlari yetishib chiqishi mumkin. Ammo hamma millat ham o'z sportini jahon maydoniga chiqara olmaydi. Sportchining oliy maqsadi Olimpiya chempioni bo'lish bo'lsa, o'zbek millatining, jahon kurashchilarining eng oliy maqsadi – Kurashni Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritishdir.

Milliy qadiriya bo'lmish o'zbek kurashini Jaxon sport maydonlarida tan olinib umuminsoniy qadiriyaatga aylanmaganligi mavzuning dolzarb muammosidir.

Ishining maqsad: Milliy kurashni rivojlanishida va mashg'ulotlarni samaradorligini oshirishda qadiriyaatlarning tutgan o'rnini aniqlash.

Ishining vazifalari:

- kurashning rivojlanish davirlari va bugungi holatida qadiriyaatlarning o'rnini aniqlash ;
- yosh kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda qadiriyaatlardan foydalanish darajasini aniqlash;
- kurash mashg'ulotlari jarayonida murabbiylarning qdriyatda foydalanayotgaligini anilash

Tadqiqot obekti: Samarqand shaxar 1 va 2 bolalar va o'smirlar sport maktablarining milliy kurash mashg'ulotlari jarayoni

Tadqiqot uslubi:

- Maxsus ilmiy - uslubiy adabiyotlarini tahlil qilish;
- Kurash sportini rivojlanishida qadiriylarning o'zni mavzusida suxbatlar o'tkazish.
- Milliy qadiriylarga isbatan mavjud munosabatlarni o'rganishga qaratilgan uslubiyat;
- Pedagogik kuzatishlar olib borish;
- Olingan natijalarni tahlil qilish;
- Nazorat mashqlaridan foydalanis

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning ommaviylashuvini yanada yuqori pog'onaga ko'tarish, jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirish, xalq milliy o'yinlarini qayta tiklash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, zamonaviy sport turlari bo'yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning sport mahoratlarini oshirish maqsadida hukumatimiz, xususan mamlakatimiz Prezidentining qabul qilgan farmon va qarorlari milliy sport turlarini keng ommalashtirish ishida muhim omil bo'lmoqda.

Jumladan, "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining QARORI (31 oktyabr 2002 yil), "Bolalar va o'smirlar sport maktablarini qadrlar bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida" O'zR XTVning BUYRUG'I (13 may 2005 yil), O'zR Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida NIZOM (6 iyul 2005 yil), O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining Tarkibi (Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 31 oktyabrdagi 374-sonli qaroriga 2-ilova), 2007 yilda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi byudjetini va bolalar sport obyektlari qurilishining manzilli dasturini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI (26 dekabr 2006 yil) kabi rasmiy me'yoriy hujjatlar

mahallalarda yoshlarni milliy sport o'yinlari orqali tarbiyalashning huquqiy asoslarini yaratib berdi.

Agar ushbu tadbirlar xronologiyasiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, keyingi yillarda milliy sport turlarini rivojlantirish va yoshlar orasida keng yoyishga yo'naltirilgan ko'pgina ilmiy-nazariy va amaliy anjumanlar o'tkazilganligini ham alohida ta'kidlash lozim. Jumladan, 1991 yili Jizzax viloyatining Forish tumanida *Milliy sport o'yinlarining birinchi festivali* o'tkazildi. .

“O'zbekiston Respublikasida sportchi o'rinbosarlar tayyorlashning oqilona yo'llari” (Toshkent, 1992), “Jismoniy tarbiya va sportda qo'llaniladigan o'zbek tilidagi atamalar” (Termiz, 1993), “O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish masalalari” (Toshkent, 1993) kabi tadbirlar milliy sport turlarini larning ilmiy-nazariy asoslarini rivojlantirish va uning yoshlar orasida ommaviylashuviga keng yo'l ochdi.

Bundan tashqari, 1994 yili Jizzax viloyatining Forish tumanida o'tkazilgan Milliy sport turlari va harakatli o'yinlari festivali - olimpiada maqomiga ega bo'ldi. 1998 yil Termiz shahrida “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan xalq o'yinlari respublika festivali hamda ilmiy-nazariy anjumani o'tkazildi. 1999 yili Jizzax shahrida “Ayollar yili”ga bag'ishlab “To'maris” festivali o'tkazildi. 2000 yili esa Farg'onada “Alpomish” o'yinlari 2-respublika festivali o'tkazildi.

Davlatimizning jismoniy tarbiya va sportga oid qator hujjatlarida xalqimiz milliy qadriyati bo'lmish milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Masalan, aholining jismoniy tayyorgarligini baholash bo'yicha jismoniy tarbiya va sport majmui “Alpomish va Barchinoy” deb nomlandi.

Bundan tashqari, Toshkent shahrida Milliy sport turlarini rivojlantirish markazi, Qarshi shahrida Respublika kurashini rivojlantirish markazi, O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutida “Milliy sport turlari” kafedrası, barcha viloyatlarda bolalar va o'smirlar ixtisoslashtirilgan sport maktablari hamda seksiyalari tashkil etilgan. Shuningdek, har yili sportning milliy turlari va xalq

o'yinlari bo'yicha tuman musobaqalari, ikki yilda bir marta Respublika festivallari o'tkazilib kelinmoqda.

1999 yilning 1 fevralida milliy qadriyatlarni, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik g'oyalarini o'zida mujassam etgan o'zbek kurashi - dunyo sporti olamida yangi sport turi sifatida tan olinishi munosabati bilan "Xalqaro kurash" assosiasiyasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida farmon qabul qilindi. Bu farmon nafaqat O'zbekistonda, balki butun jahonda kurashning keng qanot yoyishiga, ommalashuviga xizmat qilmoqda.

O'zbek milliy kurashini rivojlantirish va dunyoga yoyishdagi yuksak xizmatlari uchun mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov "Xalqaro kurash" assosiasiyasining doimiy faxriy Prezidenti etib saylandi.

Prezident I.Karimov kurash bo'yicha birinchi jahon chempionatining tantanali ochilishi marosimidagi tabrik so'zida: - "Men ishonaman, dunyoga mashhur polvonlarning bebaho xizmatlari tufayli xalqimiz ma'naviy turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan kurash bugundan e'tiboran yangi hayotini boshlaydi, yanada yuksaladi, jahon uzra keng tarqalib, turli millatlarga mansub millionlab kishilarning sevimli mashg'ulotiga aylanadi", - deb haq gapni aytgan edi.

O'zbekiston sporti tarixida Milliy Olimpiya qo'mitasining tashkil topishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1992 yil 21 yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Milliy Olimpiya qo'mitasi" tuzilib, Obid Nazirov uning prezidenti etib saylandi. "Milliy Olimpiya qo'mitasi" 1992 yil 3 martda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tarkibiga rasman a'zo bo'lib kirdi. U O'zbekistonda olimpiya sport turlarini targ'ib qilish, olimpiya o'yinlarida respublika vakillari ishtirokini ta'minlash, jahon sportchilari bilan do'stona aloqalar o'rnatish va ularni rivojlantirishdek sharaflilar vazifalarni amalga oshirmoqda. Milliy Olimpiya qo'mitasining 127 a'zosi va 11 faxriy a'zosi bor.

O'zbekiston "Milliy Olimpiya qo'mitasi"ning tuzilishi O'zbekiston sportchilari uchun Olimpiya o'yinlari, Osiyo va jahon birinchiliklari

musobaqalarida ishtirok etish imkoniyatini yaratdi. 1993 yildan boshlab, milliy kurash bo'yicha Amir Temur, At-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Pahlavon Mahmud, Mirzo Bobur xotirasiga bag'ishlab xalqaro turnirlar o'tkazildi.

1996 yil Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining qaroriga muvofiq jahon sportini rivojlantirishdagi xizmatlari va olimpiya g'oyalariga sadoqati uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oltin Olimpiya ordeni bilan mukofotlandi.

Toshkentda 1996 yilda Olimpiya muzeyi tashkil etildi. Uni Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Prezidenti X.A.Samaranch mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov bilan birga tantanali ravishda ochib berdi.

2000 yil 13-17 iyul kunlari Antalyada (Turkiya) milliy kurash bo'yicha 2-jahon chempionati bo'lib o'tdi. Jahon birinchiligi sport turlari orasida dunyoda ilk bor o'zbek kurashi bo'yicha Turkiyada besh qit'adan 50 ga yaqin polvonlar tashrif buyurdilar. Hamyurtimiz Turkiyada jahon chempioni bo'lganligi butun mamlakatimiz yoshlari uchun cheksiz vatanparvarlik namunasi bo'ldi.

2008 yil esa mamlakatimizda "Yoshlar yili" deb e'lon qilindi. Bu borada ishlab chiqilgan davlat dasturida, -"yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish..., yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish" – alohida uqtirib o'tilgan.

Yuqorida keltirilgan faktlar asosida shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz Prezidentining rahbarligi va bevosita homiyligida yoshlar salomatligini mustahkamlash, ularni sog'lom, baquvvat, Amir Temur, Pahlavon Mahmud kabi bobolarimizning vorislari etib tarbiyalash uchun barcha sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Natijada bugun jahon chempionlari, sport ustalari, xizmat ko'rsatgan sportchilar, yoshlar murabbiylari yetishib chiqmoqda. Bu esa yoshlarda milliy sport turlariga nisbatan faol ijobiy munosabat, ushbu faoliyatga nisbatan motivasiyani shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda.

A.Q.Atoyevning 1987yil nashr qilingan "Kurash" kitobida O'rta Osiyoda ham qadimgi Yunonistondagi olimpiada o'yinlariga o'xshash xilma-xil o'yinlar o'tkazilganligi, So'g'diyona va Baqtriya davlatlari mavjud bo'lgan davrlarda

meloddan oldingi IV asr O'rta Osiyoda yashagan xalqlar orasida epchil akrobat dorbozlar juda mashhur bo'lgan, Epchil, jismoniy jihatdan juda chiniqqan dorbozlar, chig'iriqchi, simbozlar Yunoniston, Vizantiya va Eron kabi mamlakatlarga borib, o'zlarini ajoyib va xatarli o'yinlarini, qiziqchi va masxarabozlarning o'tkir satira va kulgi bilan sug'orilgan turli sirk sahnalarini, kishi aqli bovar qilmaydigan pahlavonlarning o'yinlarini ko'z-ko'z qilganliklari haqida ma'lumotlar berilgan.

Shu muallifning 2005yil nashr qilingan "Yosh-o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti" nomli o'quv qo'llanmasida Qadimiy Sug'diyona markazi bo'lgan Samarqandda navro'z bayrami har doim xalq tomoshalari bilan o'tanligi, bularda xalq, san'at vakillari: baxshilar, xonandalar, hofizlar, dorbozlar, raqqoslar o'z san'atini namoyish qilishganligi, bayramlarda xalq dorbozlarning chiqishini va ayniqsa poygani zo'r qiziqish bilan tomosha qilishganligi, lekin har bir bayram o'zbekcha milliy kurashsiz o'tmaganligi haqida fikirlar keltirgan.

F.A.Kerimovning 2001 va 2005 yillarda nashir qilingan "Sport kurashi nazariyasi va uslubiyoti" nomli darsliklarida hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan ikkita kurash turi shakllanganligi: raqib belbog'idan oldindan ushlab olish va raqibni erkin ushlab olish yanii "Farg'onacha" va "Buxoracha" kurashlar mavjudligi bu kurash turlari hozirgi kunda ham Respublikamizda keng taqalganligi hada ushbu turlar bo'yicha Jaxon va Osiyo birinchiliklari o'tkazilib kelayotganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

K.Yusupovning 2005 yilda nashir qilingan "Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi" nomli o'quv qo'llanmasida kurash ham jaxonning yuksak ma'naviy qadriyatlaridan biri sifatida o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega ekanligi haqida ma'lumotlar beradi. O'z zamonasida qudratli saltanat qurgan Amir Temur buyuk davlat arbobi, ma'rifatparvar hukumdor, salohiyatli sarkarda bo'lib qolmasdan, ayni vaqtda kurash ilmi hadisini mukammal egallagan kuchli polvonsifat siymo ham edi. Shuning uchun u mamlakatda yoshlarni

chiniqtirish, vatanni sevuvchi, yurt xizmatiga kamarbasta, etuk shaxslar qilib voyaga yetkazishda kurashning tutgan o'rniga katta ahamiyat berganligi bayon qilingan.

J.E.Eshnazarovning 2007 yilda nashir etilgan "Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish" nomli darsligida ham kurash haqida ko'pgina ma'lumotlar berilgan: qadimgi ajdodlar jismoniy madaniyati xalq og'zaki ijodida, ayniqsa ko'proq ifodalanadi. Bularni "Alpomish" dostoni misolida tan olishga to'g'ri keladi. "Alpomish" dostonida kurash, otda poyga, kamondan o'q otish va merganlik kabi jismoniy sifatlar, vatanparvar va xalq uchun, sevikli yori uchun jonini ham fido qilish kabi eng ulug'insoniy fazilatlar madh etilgani bayon qilingan.

I-BOB. Milliy kurash tarixi

1.1. Kurashnig rivojlanish tarixi

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning o'ziga xos xususiyatlaridan biri aniq ifodalaigan milliy xarakterdagi sport turlari: ag'darish, ko'pkari, poyga, kurash, xalq o'yinlari va hokazolarnyng borligidir. Bu sport turlarining hammasi qadim zamonlarda paydo bo'lgan, taraqqiyotning harbir tarixiy bosqichida turli ijtimoiy vazifani bajargan va o'z shaklini o'zgartirgan. Fikrimizning dalili sifatida, keling o'tmishga bir nazar tashlaylik.

Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga yurishlari davrida bu yerda jismoniy tarbiya keng rivojlangan edi. O'rta Osiyoda ham qadimgi Yunonistondagi olimpiada o'yinlariga o'xshash xilma-xil o'yinlar o'tkazil-gan.

So'g'diyona va Baqtriya davlatlari mavjud bo'lgan davrlarda meloddan oldingi IV asr O'rta Osiyoda yashagan xalqlar orasida epchil akrobat dorbozlar juda mashhur bo'lgan, Epchil, jismoniy jihatdan juda chiniqqan dorbozlar, chig'iriqchi, simbozlar Yunoniston, Vizantiya va Eron kabi mamlakatlarga borib, o'zlarini ajoyib va xatarli o'yinlarini, qiziqchi va masxarabozlarning o'tkir satira va kulgi bilan sug'orilgan turli sirk sahnalarini, kishi aqli bovar qilmaydigan pahlavonlarning o'yinlarini ko'z-ko'z qilganlar.

Qadim zamonlarda jamoa jismoniy tarbiya sohasida o'zdavrlari zimmasiga ma'lum majburiyatlar yuklagan. Yosh qiz va yigitlar hayotda kerak bo'ladigan epchillik, chidamlilik, chaqqonlik, jasurlik va qat'iylik kabi qobiliyatlarga ega bo'lishlari lozim edi.

Ajdodlarimiz yigitlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligiga katta e'tibor berganlar. Shuning natijasida yengil qurollangan otliq askarlar jangda yaxshi manyovr qila olganlar. Ular tezlik bilan chopib ketayotgan otning ustida yoydan mohirona otar, yengil nayzalarni uloqtirar, qilich va uzun nayzalarni mohirlik bilan ishlatar, epchillik bilan egardan sakrab tushar va unga sakrab chiqar edilar. Bundan

tashqari, otliq askarlar qilichbozlik qilishni va suzishni yaxshi bilar edilar. Ko'p tarixiy manbalarda botirlarning o'zbek tuprog'ini dushmanlardan himoya qilganliklari, o'z ishlarining haqqoniyligiga va o'z g'alabalariga qattiq ishonib, dushmanning son jihatidan ko'pligiga qaramay, jangga baland ruh bilan borganliklari ta'riflanadi.

O'rta Osiyoda ilk feodalizm davrida xalq harakatlari kuchayib ketganligi sababli badavlat kishilarning o'smir bolalari, qadimiy Spartalilarda bo'lgani singari, soqchilik xizmatiga o'rgatilar edi. Sosoniylar davlatida urush. va harbiy-jismoniy jihatdan tayyorlash nazariyasi ishlab chiqildi va saroy ahli uchun yozilgan «Oyinnoma» nomli didaktik asarda bayon qilindi.

«Oynoma» da berilgan ma'lumotlarga ko'ra, sosoniylar davrida zodagonlarning bolalari 6 yoshgacha ota-onalarining uyida yashar, 7 yoshga yetgandan keyin davlat tarbiyasiga o'tkazilib, hukmdor ixtiyorida bo'l-gan maxsus maktabga joylashtirilar va 19 yoshga yetgunga qadar ana shu maktabda tahsil ko'rardi. O'z bilimi va bahodirligi bilan mashhur bo'lgan kishilar shu maktablarda murabbiylik vazifasini o'tar edilar. Sosoniylar maktablarida bolalarni jismoniy tarbiyalash masalasiga alohida ahamiyat berilar edi. Ular sovuqqa, ochlikka, chanqoqlikka, og'riqqa chidamli bo'lishi, tez. yugurishi, uzoqqa sakrashi, otga chaqqon minishi, tez chopishi. kamon va o'q-yoy otishda, qilichbozlikda mo'ljalli, tezgir bo'lishi. kurashish, jang usullarini yaxshi bilishi talab qilinar edi. Ov qilish vaqtida esa yetuk yigitlarga tabiiy vaziyatga moslanishni o'rgatar edilar: buning muhimligini urush qilish to'g'risida «Oynoma»da. yozilgan quyidagi qoidalardan bilish mumkin: «Jang boshlanishi oldidan qo'shinlarni shunday joylashtirish kerakki, quyosh nuri ularning orqa tomonidan. tushsin va shamol ham orqa tomonidan kelib tursin.

Kechalari shamol g'uvillab yoki daryo sharqirab oqib turgan paytda hujum qilib, tungi hujum shutariqa niqoblanishi kerak. Agar dushman qo'lidan suv manbaimi tortib olish kerak bo'lsa, dushmanning otlari va odamlari suvga qongan o'z otlaringiz esa chanqab suvga intilayotgan vaqtda jang boshlash kerak.

Qo'shinlarning chap tomoniga chiniqqan o'qchilarni qo'yish kerak, toki o'qlarni turli tomonlarga qaratib otish mumkin bo'lsin.

Qadimgi tarixiy asar «Karnamak» da jismoniy tarbiyaning hamma sohalarida moxir bo'lgan bir bahodir haqida shunday ma'lumot bor «xudoning marhamati bilan u to'p o'ynashda, chavandozlikda, shatranj o'yinida, ov qilishda va boshqa san'atlarda hammadan kuchli va hammadan mohir bo'lgan edi».

UyinlargaDvrqiflar (hakamlar) rahbarlik qilar edilar; ular qadimda bahodirlar orasida o'yinlar boshlanishidan ancha ilgari sport salaflari tomonidan saylanar edi. Voqiflarning vazifalari musobaqalar joyini tanlashdan, musobaqalarning borishini kuzatib turishdan va nihoyat, musobaqalarda g'olib chiqqanlarga mukofotlar berishdan iborat bo'lgan.

Asosiy mukofot tulpar ot, qimmatbaho sarpolar, pul musobaqada. g'olib chiqqan kishiga berilar edi. Ko'pincha, navbatdagi o'yinlargacha bo'lgan davr ana shu g'olibning nomi bilan atalar zdi. «Boburnoma» da ana shunday musobaqalar to'g'risida shunday ma'lumot bor: «Bahodirluq ulushi mo'g'ulda qadimiy rasmdur. Har to'y va osh bo'lganda har. kimki eldin o'zub qilich te-girg'on bo'lsa, ul ulushni ul olur. Shohruhiyada boribtag'oyim Sulton Mahmudxonni ko'rkona bahodirluq ulushni Sayid Qosim oldi. Avvalg'i kun urushda Xudoyberdi atkamga taxsh o'qi tegib o'ldi. Chun yaroqsiz urush solib edi, ba'zi yigit yalang zoyi bo'lub, xili kishi yaraliq bo'ldi. Ibrohim Soruning qoshida taxshandoz bor edi, bisyor yaxshi otar edi. Oncha taxshandoz ko'rulmaydur zrdi. Aksar elii ul yaralig' qildi».

Boburning qizi Gulbadanbegimning yozishicha xotin-qizlar ham shodlik kunlarda mardona kiyimlar kiyganlar va chavandozlik, tirondozlik kabi o'yinlarda faol qatnashganlar.

Tilsim to'yi munosabati bilan to'y marosimiga yig'ilgan begimlar haqida to'xtab, podshohning o'ng tomonida zardo'zi ko'rpachalarda o'tirgan begimlarning ismlarini mufassal va birma-bir sanab o'tib, «bular mardona kiyimlarni kiyadilar va zaxgirtiroshlik,chavandozlik, tirondozlik kabi har xil

hunarlargausta edilar va sozlardan ko'pchiligini chalar edilar» deb yozgan edi Gulbadanbegim.

Mashhur tarixchi Tabariy Samarqand xalqining arablarga qarshi olib borgan qahramonona kurashini shunday ta'riflaydi: «Arablar Samarqand xalqi bi-lan uzoq kurashgandan so'ng manjaniq (devor buzuvchi harbiy bir asbob) bilan shahar devorining bir yerini buzadilar. Devorning buzilgan yerida arablar shaharga kirmasin uchun So'g'd kurashchilaridan biri devor-niig buzilgan joyiga kelib, arablarga qarshi o'q uza boshlaydi. Mardlarcha kurashayotgan bu pahlavonning jasurligi Qutaybaning g'azab tomirlarini qo'zg'atdi. Bu qahramonni tiriklayin qo'lga tushirish qiyin bo'lgani uchun, uni otib o'ldirish qasdiga tushadi. Shuning uchun mergan askarlariga: «Sizdan kimki shu odamni otib o'ldirsa, o'n ming dirham beraman», deb va'da qiladi va bu narsa katta qiyinchiliklardan keyin ijro qilinadi

XIII asrning boshlarida mo'g'ullar O'rta Osiyo davlatlarini o'zlariga bo'ysindirgan edilar. Ular obod o'lka shaharlarini vayron qilib, kishilarni o'zlariga qul qilib olar edilar.

VII asrning oxirlariga kelib islom dini O'rta Osiyo xalqlariga majburan qabul qildirildi. Islom dini ta'siri asta-sekin jamoa hayotining barcha sohalariga tarqaldi. Arablar o'z hukmronlik ahvolini mustahkamlashga xalaqit beradigan xalq an'alariga qarshi faol kurash olib bordi. Arablar xalq tomoshalariga, jismoniy tarbiyaning turlariga ham qarshi kurash olib bordi. Tomoshalar kishilar axloqiy miyyorlariga zid kyelganligi uchun emas, balki ommani o'ziga jalb etib, islom dini ta'sirining yanada tarqalishi va mustahkamlanishiga to'siq bo'lgani uchun tomoshalarga qarshi kurash olib bordi.

Buning natijasida VII asrdayoq ko'pgana o'yinlarning ko'lami va sorsh kamaya boshladi. Lekin islom O'rta osiyoliklar hayotiga mustahkam kirib qolgan tomoshalarni darhol tugatishga qodir zmas zdi. O'rta osiyoliklar arablar istilosining yemirilishiga qadar tomoshalar ko'rsatilishini talab qilib keldi va ularni ko'rishga muvaffaq bo'ldi. Biroq tomoshalar endi aoosan chavandozlik va professional

kurashchi, uzoqqa va balandlikka sakrovchi, tez yuguruvchi, kamon otish, nayzabozlik hamda mushtlashuvchilar ning chiqishlari bilan cheklangan edi.

O'rta Osiyoda insonni o'rganishga taalluqli bo'lgan tibbiyotshunoslik sohasida katta kashfiyotlar ham qilindi. Abu Ali Ibn Sino odam gavdasining mutanosibligi va uning harakati mexanikasini o'rganadi. U jismoniy tarbiyaning kishi organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini nazariy jihatdan isbotladi va uni qo'llash yo'llarini ilmiy ishlab chiqdi.

Ibn Sino badan tarbiyani ikkiga bo'ladi. Birinchi turi, bu odamning ish jarayonida qiladigan harakatlari, ikkinchisi esa maxsus badan tarbiya harakatlari.

Besh jilddan iborat «Al qonun» da kishi tanasi tuzilishining tavsifi, kasalliklar etimologiyasi (sabab va belgilari), sog'lom hayot, kechirish haqida ta'limot, kasalliklarni tabiat kuchlari va dori-darmonlar bilan davolashga doir ko'rsatmalar beriladi. Ibn Sinoning profilaktikaga doir ko'rsatmalar haqidagi fikri alohida ahamiyatga ega. U odamlarning uzoq umr ko'rishlari haqida g'amxo'rlik qilib, ularga butun hayoti davomida sog'lom yashash va sog'liqni mustahkamlash uchun zarur bo'lgan tartibni o'rgatdi. U yosh va sog'lom holatga mos keladigan ovqat tanlab iste'mol qilish, me'yori bilan ovqatlanish va suyuq narsalar iste'mol qilish, turar joy va tanani toza tutish, shuningdek jismoniy mashqlar qilishni uzoq umr ko'rish vositalari deb hisoblaydi. Ibn Sino turli mashqlar orasida me'yori bilan uzoq va tez yurish, kurash tushish va ot minishni alohida ta'kidlar edi. Ibn Sinoning fikricha, mashqlardan ko'zda tutiladigan asosiy maqsad qon aylanishini, nafas olishni va organizmdagi moddalar almashuvini yaxshilashdan iboratdir. U jismoniy mashqlar bilan erkin va zo'riqmasdan shug'ullanishni, bunda organizmlar faoliyatida paydo bo'lgan jonlanish nafas olishni tezlashtirmasligiga va yurak faoliyatining keskin ravishda tezlashib ketmasligiga erishishni tavsiya qiladi. Usha vaqtlarda Ibn Sino jismoniy mashqlarni qo'llash metodikasiga doir yetarlicha to'g'ri ko'rsatmalar bera olgan edi. «Jismoniy tarbiyaning miqdorini belgilashga jiddiy e'tibor bilan qarash lozim. Jismoniy tarbiya organlarning turli holatlariga

qarab turlicha bo'ladi. Agar organlar juda mo'tadil bo'lsa, ular uchun mo'tadil badan muvofiq keladi. Kuchsiz organlarni quvvatli qilmoq zarur bo'lsa, o'sha organga muvofiq .keladigan va maqsadga loyiq bo'lgan jismoniy tarbiya tayinlanadi». Ibn Sinonint jismoniy tarbiya masalalari haqidagi chuqur ilmiy fikrlari asrlar osha jismoniy tarbiyachilar uchun dasturu amal bo'ldi. Barcha mamlakatlarning xalqlari o'rtasida jismoniy mashqlar, ayniqsa kurash va akrobatika katta shuhrat qozongan edi.

Qadim zamonlarda bayram kunlari sirk tomoshalarining musobaqalari ommaviy xarakter kasb etgan edi. Agar qadimgi O'rta Osiyo o'yinlarida otliqlarning musobaqalarida, qo'shg'ildirakli aravalarda, yugurkshlarda va hokazolarda bahodirlarning o'zlari qatnashgan bo'lsa, keyinchalik sirk o'yinlarining yangi turlari paydo bo'lib, maxsus professional aktyorlar faol ishtirok etadigan bo'ldi. Mashhur tarixchi Abdurazzoq Samarqan-diy Mirzo Boysunqor saroyida tashkil qilingan ziyofatda o'z mahoratini namoyish qilgan sirkchilar to'g'risida shunday ma'lumot beradi: «Xontaxtalar ustida tayyor turgan taomlardan boshqa yana har soatda oshlar, barra go'shtlar, g'oz, tovuq va zarssun keltirib turdilar. Uyinchilar o'yin ko'rsatdilar. Avvalo bir to'da oy yuzli yigitlar qizlarsingari qizil va oq rangli pardoz sur-tishib, quloqlariga marvaridlar taqib, zarbop kiyimlar kiyinib, gulchambarlar va rangli qog'oz ham ipaklardan rangdor gulu lolalarni qo'llariga ushlab va boshlariga sanchib, xitoyliklar usulida raqsga tushdilar. Bundan keyin ikkita o'n yashar bola ikkita yog'och ustida umboloq oshib, o'yin ko'rsatdi. Birkishi ostonaga yotib, oyoqlarini ko'tarib turdi. Bir nycha katta-katta qamish naylarni uning oyog'i kaftiga qo'yidilar, boshqa bir kishiu naylarning hammasini qo'lga ushladi: o'n-o'nikki yashar bola keldida, u naylar tepasiga yurib chiqdi. Har bir nayning uzunligi yetti gaz kelib qolsa kerak. U bola naylarda turib turli-tuman o'yinlar ko'rsatib bo'lgach, oxiri naylarni to bittasi qolguncha, birin-ketin tashlab yubordi-da, u qolgan bittasida umboloq oshib o'yinlar ko'rsatdi va bu ajoyi harakatlardan so'ng nogoh nay tepasidan quladi; hamma u yiqilib tushdi deb o'yladi, ammo boyagi yotgan sakrab turib, u bola

havoda ekanligida ushlab oldi».

Jismoniy tarbiyaning eng murakkab mashqlaridan bo'lgan yugurishda g'oyatda chidamli bo'lish o'zbek yuguruvchilari uchun xarakterli bo'lgan. Buning yorqin misbli shuki, qadim zamonlarda chet elliklar bilan bo'lgai qattiq janglardan keyin tez yuguruvchi jangchi g'alaba xabarini jang maydonidan o'z elatlariga tez yugurib yetkazar edi.

Bundan, tashqari qadim zamonlarda jang boshlanishidan xabar topgan tez yurar razvedkachi o'z xonini xabardor qilishda marafon yugurishidan foydalanib, shahar va vodiylarni bosib o'tar edi. Shulardan Abu Mus-limning Bodiyeidoi Samarqandiy (samarqandlik tez yugurar, mohir razvedkachi) ismli xizmatkori ayiiqsa marafon yugurishida mashhur bo'lgan. Abu Xafs Nasa-fiyning aytishicha, Abu Muslim o'ldirilgandan keyin Bodiyeido(shamolday tez yuguruvchi) uning jasadini dushmanlarining qo'lga tushirmaslik uchun Bog'doddan Samarqaidgacha faqat tunlarda marafoncha yugurib olib kelishga muvaffaq bo'lgan.

Sakrash mashqlaridan — uzunlikka sakrash ko'proq qo'llanilgan. Xandaqlardan, otlar ustidan va boshqa to'siqlardan sakrash katta amaliy ahamiyatga ega edi. Musobaqalarda ko'pincha qo'lga qilich ushlab sakrash keng yoyilgan edi.

Suvda suzish mashqlari ham har bir O'rta osiyolik jantchi uchun majburiy edi. Bu «Oyinnoma», «Siyosatnoma» asarlarida qayd qilib o'tilgan. Bobur ham «Boburnoma» asarida o'zining mohir suzuvchi bo'lganligini shunday eslaydi: o'sha kuni men Gang daryosini suzib o'tdim va uning u chekkasidan bu chekkasigacha nechaqadam ekanligini hisoblab chiqdim. O'ttiz qadam masofa suzib borgan ekanman. Shu ondayoq dam o'tmay yana ketimga suzib, o'z joyimga qaytib keldim. Men hamma daryolarni suzib o'tgan zdim, faqat Gang daryosi qolgan edi».

Mahmud Qoshg'ariy o'zining «Devoni Lug'otut turk» asarida suvda cho'milish, suv kechish, suvda quvish, sho'ng'ish musobaqalari O'rta Osiyo elatlari o'rtasida keng tarqalganligi to'g'risida ma'lumotlar beradi.

O'rta Osiyoda bayram vaqtlarida o'tkaziladigan harbiy-jismoniy mashqlar orasida qo'lda maxsus tayoq sul-jon bilan ot chopib o'ynaladigan chavgon (to'p) o'yini ayniqsa mashhur bo'lgan. Mingan otlarining rangi bilan bir birlaridan ajralib turadigan raqiblar ikki guruhga bo'lingan. Har bir chavandozning qo'lida uchiqayrilgan uzun tayoq bo'lardi. Uyinchilar to'pni ana shu tayoq bilan bir-birlariga oshirib otib, maydonning ikki chekkasiga o'rnatilgan raqib darvozasiga olib borib kiritishga harakat qilishardi. Chavgon katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan o'yindir. U matonatlik tez payqay olish, xarakterni tez koordinasiyalay bilish, jasorat, g'alabaga ishonch, og'ir sharoitda ham to'g'ri va tez yo'nalish ola bilish xususiyatlarini tarbiyalashda yordam beradi.

Chavgon o'yini shu qadar ommabop va mashhur bo'lganki, bu o'yinga oddiy chavandoz navkarlargina emas, balki lashkarboshilar, shohlar ham faol qatnashganlar «G'oliblarga sovrun sifatida tangguk ipak kiyimlik» byerilgan.

Sharqning mashhur shoirlari chavgon o'yinidan qattiq ta'sirlanganlar va ilhomlanganlar. Ular chavgon o'yiniga bag'ishlab go'zal g'azal va nafis baytlar bitganlar:

«Boburnoma» da ham chavgon o'yini haqida maroqling tafsilotlar berilgan.

Sportning eng og'ir va xatarli turlaridan bo'lgan alpinizm ham O'rta osiyoliklarga qadimdan ma'lum..

Kishidan umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni, epchillik, jasurlik, uddaburonlikni talab kiluvchi alpinizmning ko'p formalari O'rta Osiyoda shakllangan. Jumladan, O'rta Osiyoning, Hindistonning Afg'onistonning ko'plab past-baland tog'laridan oshib o'tgan, tez oqar va sho'x daryolaridan o'z armiyasini olib o'tgan Boburning mohir va mashhur alpinist bo'lganligi haqida uning «Boburnoma» asaridagi ma'lumotlar dalolat beradi. Bobur va uning askarlari Qobulga borish uchun yaqin yo'l tanlamoqchi bo'lib, Qosimbek degan odamning gapi bilan Hindiqush tog'lari orqali yuradilar. Ammo ular yo'ldan adashib va ko'p qiyinchiliklarga uchrab Hindiqush orqali Qutiy degan g'orga yetib kelishadi. Hamma, shu jumladan Bobur ham, qo'lga kurak olib o'ziga boshpana g'or

qazishga kirishadi: «Qo'limga kurak olib, qor kurab o'zimga bir joynamoz miqdori yer yasadim, qorni ko'ksimgacha qazidim, hanuz yerga yetmaydur edi. Harna yelga panoh bo'ldi. Usha g'ordao'ltirdim, yigitlarim: katta g'orga keling, deb har necha dedilarkim, bormadim. Ko'ngulga keldi: barcha kishilarim qorda va bo'ronda qolsayu, men issiq uyda va istirohatda yotamanmi, dalada barcha odamlar tashvish va mashaqqatda yursalaru, men katta g'or ichida uyqu bilan farog'atda yotamanmi? Bu nomardlik bo'lardi, bu hamjihatlikdan yiroq ishdir

1.2. Milliy kurashning taraqqiyotida muxim bosqichlar

O'rta Osiyoda keng tarqalgan milliy sport turlaridan bo'lgan milliy kurash o'zining uzoq tarixiga ega, Milliy kurash odamlar qabila-oqabila bo'lib yashagan ibtidoiy jamoa davridayoq rasm bo'la boshlagan. Buni ko'pgina arxeologik etnografik materiallar, yozma manbalar, turli-tuman yodgorliklar ham tasdiqlaydi. Masalan, Jonbosh Qala qo'rg'onini (eramizdan avvalgi IV asrdagi Xorazm davlati yodgorligi) arxeologik kavlash vaqtida aniq ikki qismga bo'lingan kichik shaharcha topilgan. Ularning o'rtasidan o'tgan ko'cha chegara bo'lgan. Professor S. P. Tolstoy shaharning bunday tuzilishini u yerda ikkita urug'chilik jamoasi borligidan, deyib hisoblaydi. Shaharda turli urug'larga mansub jamoalar o'rtasida eng an'anaviy kurashga tushish odat bo'lgan. Kurash yangi yilning boshlanishi — navro'z bayrami kunlarida o'tqazilgan.

Yunon tarixchisi Elian Saklarda bir odat bo'lganligini, ya'ni bu odatga ko'ra uylanishni istagan har bir yigit o'zi tanlagan qiz bilan yakkama-yakka bellashishi lozimligi, bu kurashda g'olib chiqsagina qiz yigitniki bo'lishligi, qizni yenga olmagan taqdirda esa yigit uning asiri bo'lib qolishligi haqida ma'lumot beradi. Elianning hikoyalari Sak eposidan olingan bo'lib, uning ayrim epizodlari «Ug'iznoma» da saqlanib qolgan. «Ug'iznoma» epik dostonida Beyrekning Boybijonning qizi Bonu Kechek bilan yakkama-yakka olishuvi tasvirlangan. Bu dostonida qahramon poygada qizdan o'zishi, qiz otgan kamon o'qini uchib

ketayotganda otib mayda-mayda qilishi va nihoyat, qizni kurashda yiqitishi kerak edi. Ayollar o'z jismoniy kuchlarini va harbiy fazilatlarini ongli ravishda baholay olganlar. Ular o'z muhabbatlari va baxtlari uchun kurashga tayyor edilar. Shuning uchun ham ular bahodirlar o'z sevgilarini jangda, qahramonlikda oqlashlarini qat'iy talab qilganlar.

Yoki yana bir misol: qadimgi Xitoy yilnomasi «Shan-Shun» da Farg'onada yangi yil bayramida shaharning ikki qism aholisi o'rtasida an'anaviy marosim — kurash musobaqalari o'tkazilib, unda ikkala tomon o'z polvonlarini maydonga chiqarganligi hikoya qilinadi.

Polvonlar haqidagi eslatmalar uzoq o'tmishga taalluqli. Arxeologik qazilmalarda olishuv paytini aks zttiruvchi kurashchilarning figuralari topilgan. Masalan, Qo'y Qirilgan qal'adan (eramizdan oldingi IV—III asrlar) topilgan musallas ichiladigan idishda mushtlashuvchi jangchi (erkak kishi) ning figurasi tasvirlangan.

Xan sulolasiga mansub qadimiy Xitoy munshilari, grek tarixchisi Pompey Trog (eramizning I asri) bir davrlar hozirgi O'zbekistonda yashagan qabilalarning mohir kurashchi, chavandoz, nayzaboz, yoyo-tar, mergan, mushtlashadigan jangchi, otliq-o'qchi, nayza uloqtiruvchi, xullas, jangovarlik ishlarida tengsiz bo'lganliklarini hikoya qiladilar. Ular qo'rquv va mag'lubiyat nima ekanligini bilmaganlar «arslon» va «sher» bo'lib jang qilganlar.

Tarixchi, etnograf va tilshunos Mahmud Qashg'oriy o'zining «Turk og'zaki va yozma ijodiyoti to'plami» nomli mashhur asarida belbog'idan ushlab olib, raqibini bo'ynini qayirgan, tez hamda chaqqonlik bilan oyoqlarini harakat qildirib, bellashuvda g'alabaga erishgan polvonlar kurashi haqida yozadi.

Asli kasbi mo'ynado'z bo'lgan Pahlavon Mahmud kuragi yerga tegmagan edi.

Pahlavon Mahmud XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning boshlarida yashab ijod etgan faylasuf shoir hamdir. Mahmud ota-onasi Urganchdan Xevaga ko'chib kelayotganlarida, 1248 yilda Xeva yaqinida tug'ila-di. Mahmud jismoniy

jihatdan juda baquvvat yigit bo'lib yetishadi, polvonlik bilan shug'ullanadi. Xorazmning ko'p shaharlarida, Hindistonga borib kurash-tushadi, doim g'alaba qozonadi. Shuning uchun u go'shtign (Ku-rashchi) nomi bilan shuhrat topadi. Hikoya qilinishicha, pahlavon Mahmud bir jangda Hindiston shohi Roy Ropoy Chunani o'limdan qutqarib qoladi, buning evaziga qachonlardir Hindistonga asir tushgan xorazmliklarni ozod ettiradi. Otashin vatanparvar Xeva yaqinida Chingizxon qo'shiniga qarshi janglarda halok bo'lgan Xorazm mard jangchilarning qabri ustiga maqbara qurdiradi.

Pahlavon Mahmud jismoniy jihatdan ortiq baquvvat bo'lgani uchun nomardlar undan zir titraganlar. Ammo u tabiatan kamtar va xokisor bo'lgan. Bobokalonimiz Alisher Navoiy «Holoti Pahlavon Muhammad». degan asar yozib, pahlavonning fazilatlarini ta'riflagan: «barcha sodot va mashoyix va ulamo va fuqaroning Mahbub ul qulubi erdi va podshoh eshigida arkoni davlatidan beklar va oliymakon ichkilar va sudur va soyir xaloyiqg'a Pahlavonning suhbati navro'z va bayramcha bor edi... Uldag'i borchasig'a loyiq xizmatlar qilib, suhbatlr tuzatib, ne'matlar tortib, sozandalig' va go'yandalig' buyurib, tamo' va raqs qilib, ularni xushhol va munbasit uzatur erdi. Takallufsiz va mubolag'asiz podshohdin gadog'acha vaahlillodin yahud va tarsog'acha Pahlavonni sevmas va tilamas kishi yo'q erdi».Pahlavon Mahmud 1326 yilda Xevada vafot etadi.

Qadimiy Sug'diyona markazi bo'lgan Samarqandda navro'z bayrami har doim xalq tomoshalari bilan o'tardi. Bularda xalq, san'at vakillari: baxshilar, xonandalar, hofizlar, dorbozlar, raqqoslar o'z san'atini namoyish qilishardi. Bu bayramlarda xalq dorbozlarning chiqishini va ayniqsa poygani zo'r qiziqish bilan tomosha qilardi. Lekin har bir bayram o'zbekcha milliy kurashsiz o'tmas edi, albatta.

Musobaqa natijasida har yili kurashchilardan biri Sug'diyona polvoni nomini olar edi. Bayramlarda u obro'li joyda o'tirar va kurash tushishni istagan har kishini bellashuvga chaqirar edi. Odatda talabgorlar ko'p bo'lardi. Ba'zi vaqtlarda asosiy polvon va kuchiga ko'ra unga munosib raqiblar o'rtasidagi kurash hatto bir necha

kun davom etar edi. Kurashda o'z raqibini yenggan polvon kelgusi yil g'olibi hisoblanar edi.

«Maydondagi bir kishi ham jangchi» deyishadi. Bu aforizmni tushunish uchun tarixga nazar tashlash kerak. Chunki qadimda davlatlar va qabilalar o'rtasidagi mojarolar ularning vakillari olishuvida hal qilinardi. Halok bo'lgan jangchi ko'plab qon to'kilishining oldini olardi.

Qabila va davlatlar o'rtasidagi mojarolar vaqtida har bir tomon o'z qo'shinlari orasidagi eng kuchli polvonni maydonga chiqarar va ular o'rtasida jang bo'lar edi. Ular qilich yoki nayza, yoy yoki kamon o'qi bilan uri-shishlari mumkin edi. Agar jangda birrr tomon halok bo'lmay, barcha jang qurollari yaroqsiz holga kelsa, qo'l bilan urishish boshlanardi. Bu jang vaqtida raqiblardan biri ikkinchisini otdan tortib tushirishi va yerga yiqilganni yanchib tashlashi kerak edi. Yengilgan polvon qaysi qo'shinning vakili bo'lsa, shu qo'shin o'zini mag'lub deb hisoblar edi.

Ot musobaqalarida foydalaniladigan ag'darish (otdan tortib tushirish) usuli ana shu qadimiy urf-odatning oqibatidir. Agar otdan tortib tushirgan vaqtda raqibi halok bo'lmasa, jang kuchlilikni sinash musobaqasi tarzida davom etar edi. O'z raqibini o'ldirgan kishi g'olib deb tan olinar, binobarin u o'z qo'shiniga g'alaba keltirar edi.

Kvint Kursiy Ruf (grek tarixchisi) Aleksandr Makedonskiyning qo'shini O'rta Osiyoni zabt qilish vaqtida 30 bahodirni asir qilib olganini yozadi. Bahodirlarning o'ldirilishi aniq edi. Ular buni bilganlari holda o'zlarini mardonavor tutdilar, qo'shiq aytdilar, raqsga tushdilar. Bu bilan o'zlarining o'limni pisand qilmasliklarini ifodaladilar. Aleksandr Makedonskiy ularning qat'iyligi va mardligini baholab, hayotlarini saqlab qoladi.

Qo'qon xoni qo'shinlari jang bilan Ura Tepaga yurish qildilar. Qo'qon xoni va Ura Tepa lashkarlari bir-biriga to'qnash kelgach, jangni boshlamadilar, balki qarama-qarshi saf tortib turdilar. Qo'qon bahodir-lari oldinga chiqib, o'ratepalik polvonlarni kurashga chaqirdilar. Uratepalik polvon Ollonazar o'rtaga tushdi va qo'qonlik pahlavonlarni yengdi.

Bu lavha kurashchilarning bellashuvlari faqat raqibi ustidan g'alaba qozonish vositasi emas, balki jangchilarga axloqiy va emosional ta'sir ko'rsatganligidan dalolat beradi. Polvonlar bellashuvi ramziy xarakter egallar, kurashuvchi tomonlarning jismoniy tayyorgarligini, ma'naviy qiyofasini aks ettirar hamda jangchilarning jangovarlik kayfiyatini ko'tarishga yordam berar edi.

Mo'minjon Muhammadjonov memuar xarakteridagi «Turmush urinishlari» nomli kitobida yerli xalq kurashni qanday sevganligi haqida shunday bir ma'lumot beradi:

«Toshkent Beshyog'och daha Chaqar mahallada yashab o'tgan Ahmad pahlavon Topilboy o'g'lining O'rta Osiyoda kurashib, yiqitmagan pahlavoni qolmagan edi. Shu vaqtlarda, 1895 yillarda butun jahonga mashhur bo'lgan nemis pahlavoni Reppel Toshkentga kelib, sirkda o'z pahlavonligini ko'rsatib hamma tomoshabinlarni qoyil qilib yurar edi. Uning og'irligi sakkiz yarim pud (133 kg) bo'lib, sakkiz pudlik cho'yanni ikki qo'li bilan, o'n olti pudlik cho'yanni kifti bilan ko'tarar edi.

Shu pahlavon Ahmad pahlavonning dovrug'ini eshitib qolib, u bilan kurash tushmoqqa jazm qilibdi. «Kim yiqilsa, yonidan ellik so'm beradi» deb garov bog'lashibdi. O'sha kuni sirkni odam bosib ketibdi. Yigirma sakkiz yoshli Ahmad pahlavon egnida bag'ri bog'langan oq yaktak, belida belbog' bilan ma'raka maydoniga tushdi. «Kim yiqilib mayib bo'lsa, o'z gardoniga» degan shart qo'yildi. Bir ozdan so'ng ichkaridan mushak go'shtlarini o'ynatib savlat to'kib Reppel chiqib keldi. Uning belida tasma belbog'i bor edi.

Ikki zabardast pahlavon o'rtada bel tutishib ketdilar. Tomoshabinlarning yuragi zirqirab ketdi «Kim kimni yiqitar ekan?» degan tashvishda nafaslarini ichlariga yutib tek turib qoldilar. O'sha asnoda sirkda pashsha uchsa bilinar edi. Faqat ora-sira pahlavonlarning «gih» etgan tovushlarigina eshitilib qolar edi. Oradan bir necha minut o'tar-o'tmas Ahmad pahlavonning «Yo Alisheri xudo» degan nidosi eshitilib qol-di. Shu dam yer larzaga kelgandek bo'ldi. Charxpalak bo'lib tushgan Reppel yerda uzala tushib yotar edi. Qarsak ustiga qarsak bo'ldi,

qiychuv ko'tarildi.

Shundan keyin Ahmad pahlavonning shuhrati yana ortdi. 1904 yili quvalik girdig'um Xo'ja pahlavon Toshkentga kelib, atrofdan kelib «manman» degan pahlavonlarni bitta qo'ymay qoyil qilib yiqitib yurar edi. U o'zi bilan tushgan pahlavonlarni ikki siltashda ko'kragiga bosib, maydonda gir aylantirib ketar va xo'b tanobini tortib, o'z didiga to'g'ri kelgan joyda chalpak qilib urar edi.

Shu pahlavon Toshkentda ikki oycha davr surib, yuzlab chopon kiydi va ko'p pul orttirdi. Oxiri o'ziga baravar keladigan pahlavon qolmaganidan keyin Ahmad pahlavon bilan kurash tushmoqqa talabgor bo'ldi.

Bu vaqtda Ahmad pahlavonning beliga yara chiqib qiynalib yurgan edi. Nomusi kuchli va shijoatli pahlavon uni talabini qaytarmadi. «Xo'p, kurash tushsam tushay» deb mahsisini yechib o'rta tushdi. Xo'ja pahlavonning bo'yi-basti Ahmad pahlavondan kichikroq edi. Ahmad pahlavon ikki qo'lini ko'tarib, Xo'ja pahlavonning ushlashiga yo'l qo'yib berdi. Xo'ja pahlavon uning belbog'idan ikki qo'lini burab o'tkazib oldi. So'ngra Ahmad pahlavon uning belbog'idan havol ushladi. Ikkala pahlavon davrada picha yurishgandan keyin Ahmad pahlavon uni bir siltab ko'kragiga bosib bir necha daqiqa muallaq ko'tarib aylantirib yurdi. So'ngra «mehmonsiz» siyladim deb sekin yerga qo'ydi. Ahmad pahlavonning qilgan olijanobligiga tomoshabinlar qoyil qoldilar. Qiy-chuv ko'targan xalq cho'ntagidagi pulini va choponini yechib o'rta tashlayverdi.

Keltirilgan misollardan shu narsa ayon bo'ladiki, demak bundan 1000 yillar avval ham o'zbeklarda usullar tizimi yetarlicha rivojlangan va aniq shakllangan milliy kurash mavjud bo'lgan, o'sha vaqtlardayoq kurashning ikki turi tarkib topgan: raqibining belidan oldindan mo'ljallagan bo'yicha ushlab olish (bunda poypechak va oyoqlari bilan raqib oyog'iga boshqa harakatlar qo'llanilmaydi), raqibni ixtiyeriy ushlab olish (bunda poypechak, oyog'i bilan raqib oyog'iga boshqa harakatlar qo'llaniladi)

Tarixiy memuar adabiyotlarda, arxeologik manbalarda xalq bayramlarining barchasida kurash albatta bo'lganligiga oid ma'lumotlarni ko'plab uchratamiz.

Temurlangdan boshlab va keyinchalik ham hamma hokim-lar bayramlarda, tantanalarda kurash musobaqalari o'tkazar edilar. Bora-bora esa bu xalq urf-odatiga aylanib qoldi. Musobaqalarning bu xilda surunkali o'tkazib turilishi kurash texnikasining rivojlanishiga yordam berdi. Chunki ularga tayyorgarlik ko'rishda kurashchilar muntazam mashq qilar, kurash usullarini o'rganib, uni takomillashtirar edilar.

Musobaqalarning o'zi ham kurashning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Nimaga deganda kurashchilar xilma-xil va murakkab kurash vaziyatida kurash usullarini qo'llashga doir malaka va ko'nikmalarni mustahkamlay bordilar. Bularning hammasi o'ziga xos o'zbekcha milliy kurash texnikasini boyitdi va unga sport xarakterini kasb etdi.

O'zbek xalqi milliy kurashni insonni jismoniy tarbiyalash vositasi deb qarardi. Xalq o'zida kuchlilikni; chidamlilikni, iroda va botirlikni mehnatkash xalqning axloqiy sofliğini mujassamlashtirgan kurashchi-polvonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lar edi.

Diniy va oilaviy bayramlarda, ba'zan esa odatdagi kunlarda, ishdan bo'sh vaqtlarda kurash musobaqalari o'tkazilar edi. Bu musobaqalar navro'z bayrami kunlari keng avj olib, ommaviy xalq chempionati sifatida o'tkazilar edi. Unda turli shahar va qishloqlardan kelgan kurashchilar ishtirok etardi.

Kurashchilar juftini tanlashda ularning vazni ko'z bilan chamalab aniqlanardi. Bellashuvga taxminan bir xil vazndagi polvonlarni kiritishga harakat qilar edilar. Bellashuv oldidan kurashchilar oyoq-qo'llar chigilini yozish mashqlarini bajarishmas, faqat gavgani uqalash, silash qo'llanilar edi.

Kurashchilar an'anaviy kiyimda musobaqalashardi. Farg'ona qoidasi bo'yicha kurashuvchilar paxtali choponda,

Buxoro qoidasi bo'yicha kurashuvchilar esa paxtasiz avra to'n kiyib kurashdilar. Bel esa belbog' bilan bog'lab olinardi. Kurashchilar milliy ishtonda, ba'zan mahsi kiyib kurashar edilar. Odatda oyoq yalang kurash tushilar edi. Kurashchilarning bunday kiyinishi hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

XX asrning boshlarida g'oliblarni aniqlaydigan xalq mezoni tarkib topdi: raqibini tik turgan holda kuragini yerga tegizish; raqibni yerga yiqitgandan keyin tezlik bilan aylantirib kuragini yerga tegizish.

Doiradan chiqmay turib) o'zi bilan bellashishni xohlovchilar ustidan g'alabaga erishgan polvonga bellashuvni mutlaq g'olibi nomi berilar edi.

Milliy kurash qoidalari o'zining insonparvarligi bilan xarakterlanadi. Bu kurashchilar sog'ligi uchun xavfli bo'lgan usullarning ta'qiqlanishida, belning pastidan ushlash mumkin emasligida, raqibini yerdan ko'tarmasdan turib unga oyoq harakatlarini qo'llamaslikda, bellashuv vaqtida belbog'ni qo'yib yubormaslikda namoyon bo'ladi.

Hozirgi O'zbekistonda revolyusiyadan oldingi davrda milliy kurashning ikki turi: buxorocho va farg'onacha turlari bor edi.

Buxorocho kurashda tik turgan holda, beldan pastni ushlamasdan, qalmoqi qilib yiqitish usuli mavjud. Bu kurashning asosiy usullari: raqibni oshirib otish, qalmoqi, qoqma, ichki tomondan poypechak qilib ag'darib, raqibning' yelkasidan ushlab, tizza tomon bilan ilmoq qilib yelkadan oshirib tashlashdan iborat. Buxoro, Xorazm, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'istonda "buxorocho kurashish rasm bo'lgan.

Farg'onacha kurashda raqiblar tik turgan holda, oldindan belbog'dan ushlashadi, bellashuv paytida ham qo'yib yuborilmaydi.

Raqibni yerdan ko'tarib, oyoq harakatlari bilan yiqitishadi. Bu kurashning xarakterli usullari: irg'itish, raqibni avvalo yerdan uzib irg'itish, raqibni egib aylantirib, boshini gilamga tekkizmasdan irg'itish raqibni aylantirib yiqitish, raqibni qayirib yelkadan oshirib yiqitish

Farg'onacha kurash Farg'ona vodiysi, Toshkent, Sirdaryo viloyatlarida rasm bo'lgan.

Kurashga tushish marosimlari tantanali tusda bo'lib, juda ko'p tomoshabinlar ishtirokida o'tkazilar edi.(Xalq an'anasiga ko'ra kurash musobaqalari bolalarning, keyin yoshlarning, oxirida katta polvonlarning o'rtaga chiqishidan iborat bo'lgan.

Mahalliy zodagonlar, boyonlar tomoshaga ommani yanada ko'proq jalb qilish maqsadida kurashish marosimlariga xo'roz, bedana urishtirish va turli xil kim oshdi tadbirlarini ham kiritganlar. Musobaqalar chog'ida toatibodat qilish, tomoshabinlardan turli xayr-ehsonlar to'plash odat tusiga kirgan edi. Mutasaddi bo'lmish zodagonlar, boyonlar musobaqalar-dan ommani islom dini aqidalariga qullarcha itoat qilish ruhida tarbiyalash, mahalliy va chor hukmdorlariga so'zsiz sadoqat bilan xizmat qildirish yo'lida foydalandilar. Ana shu boisdai kurash musobaqalari to'g'risida ommaga oldindan xabar qilib, zo'r tayyorgarlik ko'rishga katta e'tibor berilgan.

Kurashning qanday bo'lishi, uning qanday o'tkazilganligi to'g'risida matbuotda munatazam xabarlar yoritilgan. Bu jihatdan «Turkestanskiye vedomosti» gaze-tasining 1909 yil 60, 62, 64- sonlarida (18, 20, 22 mart) berilgan quyidagi e'lon tariqasidagi xabarlar xarakterlidir.

«Shu kunlarda eski Toshkentning Shortin tepa degan joyida mahalliy polvonlar har kuni bir-biri bilan kurashga tushmoqdalar. Bu xildagi kurashlar Urda yonidagi «Eski otbozor» degan joyda ham bo'layotir. 20 mart juma kuni bu yerda kurash yanada qiziqarli o'tkaziladi: tomoshabinlar uchun o'tirish o'rinlari tayyorlanmoqda. Shu kuni yig'ilgan hamma mablag' Turkiston xayr-ehson jamiyati foydasiga beriladi. Kurash ertalabdan kech-gacha davom etadi».

Ba'zan kurashlar eng kuchli polvonni aniqlash maqsadida, ya'ni chempionat tariqasida tashkil qilinib, unga Turkiston o'lkasining shahar va qishloqlaridan ko'pgina polvonlar kelishgan. O'sha gazetada quyidagicha xa-bar e'lon qshshngan:

«Bugun 20 marta, Urda yonidagi shaharning tub aholisi joylashgan qismidan, belgilangan sartlar kurashishining juda qiziqarli o'tishi kutilmoqda, chunki unda mahalliy sart polvonlardan tashqari, bu yerga maxsus kelgan qo'qonlik polvonlar ham kurashga tushadilar».

Bu kurash musobaqasi o'tkazilgach, gazeta mana bunday yozadi: «20 mart, juma kuni eski shaharning «Eski otbozor» joyida xayr-ehson to'plash maqsadida o'tkazilgan kurash bellashuvlariga juda ko'p tub xalq (10 mingdan ziyod),

shuningdek ko'p rus mehmonlari ham kelishdi. Bu kurashda 100 juft (bir varakayiga bir necha juft) polvon bellashdi. G'oliblarga sovrinlar (soatlar, to'nlar va b. q.) tarqatildi. 70 dan ziyod ana shunday sovrinlar tarqatildi».

Ommaviy kurashning mahalliy xalq orasida milliy ongining o'sishiga turtki bo'layotganligini fahmlab Turkiston hukumati 1915 yilda, rus xalqida rasm bo'lgan mushtlashish musobaqalarining man etilganligini rukach qilib, kurash sportini taqiqladi. Biroq keng ommaning qalbidan chuqur joy olgan, uning eng ta'sirli tomoshalaridan hisoblangan kurash musobaqasi har qanday taqiqlashlarga qaramay, shahar va qishloqlarning ko'p odam to'planadigan qulay maydonlarida zo'r qiziqish bilan davom etaverdi.

O'zbek xalqi orasida mashhur bo'lgan polvonlardan Toji A'loyev, Abdurahmon Vohitov, Azimxo'ja, Haydar Ali va boshqalar Toshkent sirkida hatto atoqli rus professional kurashchilari Poddubniy, Vaxturov, Zai-kinlar bilan bellashganlar. O'zbek polvonlarining rus kurashchilari bilan sport aloqalari o'zbek milliy kurashi texnikasi va usullarini boyitishga sezilarli yor dam berdi.

Demak, o'zbek xalqi yosh avlodni tarbiyalash maqsadida o'zining jismoniy mashqlardan foydalanish formalarini va metodlarini ijod qildi. Ammo mehnatkash omma yoshlarga uyushgan va muntazam jismoniy tarbiya berish imkoniga ega emas edi. Ommada buni amalga oshirish uchun na yetarli bo'sh vaqt, na moddiy mablag' bor edi.

Oktyabr revolyusiyasi kishining kishi tomonidan ekspluatasiya qilinishini tagtomiri bilan yo'qotdi, asrlar davomida qullikda, qashshoqlikda yashab kelgan mehnatkashlar ommasiga ozod, baxtiyor hayot baxsh etdi, unga har tomonlama o'sish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratib berdi, fan, san'at, jismoniy madaniyat va sport kabi shaxsni garmonik tarbiyalaydigan xazinadan bahramand bo'lishga keng yo'l ochib berdi.

1918 yil 22 aprelda «Harbiy san'atga majburiy o'rgatish to'g'risida» dekret chiqaradi. Bu dekretni amalga oshirish uchun harbiy kengash huzurida umumiy harbiy ta'lim va sobiq Qizil Armiya rezerv qismlarini tuzish Bosh boshqarmasi

tashkil qilindi. Boshqarma faoliyatining eng muhim qismi yoshlarni jismoniy jihatdan tayyorlash bo'ldi. Boshqarma butun mamla-kat buyicha sport klublari, jamiyatlariga, yoshlarni jismonii tarbiyalash ishlariga rahbarlik qildi.

Boshqarma organlari 1918 yildan boshlab Turkistonida mahalliy aholi o'rtasidan sobiq Qizil Armiya rezervlarini jismoniy jihatdan tayyorlashga rahbarlik qildi. Bu mas'uliyatli tadbirni muvaffaqiyatli hal etishda, jismoniy tayyorgarlikning aniq natijalarini aniqlashda sportning bir necha turlaridan, ayniqsa milliy kurashdan asosiy vosita sifatida foydalanildi. Omma orasida bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun xalq ichida obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan polvonlardan Toji A'loyev, Qoratoy Yusupov va boshqalarni Boshqarma jismoniy tayyorgarlik bo'yicha yo'riqchilar sifatida ishga jalb qilingan.

1920 yil 10 oktyabrda Toshkentda o'tkazilgan birinchi O'rta Osiyo olimpiadasida sportning milliy turlari shu jumladan, farg'onacha kurash xam keng namoyish qilindi. Sportning bu turi bo'yicha o'zbekistonlik polvonlar g'olib chiqishdi.

1921 yilda o'tkazilgan ikkinchi O'rta Osiyo olimpiadasida ham O'zbekiston polvonlari birinchi o'rinni, olishdi Bu olimpiadada ham farg'onacha kurash namoyish qilindi. 1926 yillar oxiriga kelib O'zbekistonda slort bilan shug'ullanuvchilar soni 20 ming kishiga yetdi, ularning 40 foizi mahalliy yoshlardan iborat adi. Milliy kurash maxalliy yoshlarni sportning boshqa turlari bilan shug'ullanishg'a jalb qilishda eng maqbul omil bo'ldi

1928 yil Qo'on shahrida birinchi milliy jismoniy madaniyat bayrami o'tkazildi. Bu muhim tadbir diniy marosim — qurbon xayit kunlarida o'tkazilishiga qaramay, jismoniy madaniyat bayrami tantanalariga Farg'ona vodiysining' hamma burchaklaridan, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlardan minglab odamlar kelishdi. O'tgan olimpiadalardagi singari farg'onacha usulda uyushtirilgan bu kurashlarda o'zbek xalqi orasida dong'i ketgan 39 polvon maydonga chiqishdi. Olti kun keskin davom etgan bu bellashuv musobaqalarida 65 yashar Ilmyamii Ilmibuva (Farg'onalik) O'zbekistonning eng kuchli polvoni

degan faxrli nomga sazovor bo'ldi.

1934 yilda bo'lib o'tgan O'rta Osiyo xalqlari birinchi spartakiadasi dasturiga kurashning kiritilishi uning roli oshganligidan dalolat beradi. Bu slartakiadada kurashchilar to'rtta og'irlik vazniga bo'lingan edi. Unda O'zbekiston va Qirg'iziston kurashchilari ikkitadan jamoa bilan ishtirok etishdi hamda kurashning farg'onacha va buxorocha turlari bo'yicha birin-chilikni olish uchun bahslashdilar. Qozog'iston va Tojikistondan bittadan jamoa qatnashdi. Ular faqat buxorocha kurashda ishtirok etdilar. Bu spartakiadada xar ikki turdagi kurash bo'yicha jamoa xisobida O'zbekiston jamoasi birinchi o'rinni egalladi. Shaxsiy birinchilikda kurashning buxoro qoidalari bo'yicha Qurbonov (yengil vazn), Meylakboyev (o'rta vazn), farg'onacha kurashda Mo'minov (og'ir vazn) musobaqa g'olibi bo'ldilar.

Kurashning ommaviyligi, kurash bilan shug'ullanuvchilar va musobaqalar soni yildan-yilga o'sib bordi. Olimpiadalar, musobaqalar ana shu xalq sport turining rivojlanishi va keng yoyilishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonning jismoniy madaniyat tashkilotlari xalq sportining mashhur turlari (kurash, uloq, poyga) va xalq o'yinlaridan mehnatkashlarni jismoniy madaniyat va sport ishlariga keng jalb qilish vositasi sifatida foydalandilar. Urushdan keyingi kurash bo'yicha birinchi chempionat 1945 yili Namangan shahrida o'tkazildi. To'g'ri, u ko'p ishtirokchilarni o'ziga jalb qilmadi, lekin milliy kurashning ommalashuviga yordam berdi.

Respublika birinchiligi uchun o'tkazilgan keyingi birinchiliklar 1946 va 1947 yillarda bo'lib o'tdi. Ularda ko'p sonli kurashchilar ishtirok etishdi.

1947 yili kurash bo'yicha respublika to'garagi va xakamlar xayati tashkil etildi hamda sportning shu turi bo'yicha shaxsiy jamoa birinchiligi o'tkazildi. Kurash O'zbekiston spartakiadasi dasturiga kiritildi. Musobaqalar va unda ishtirok etuvchilar soni oshdi. Masalan, 1949 yili kurash bo'yicha respublika birinchiligi va respublika qishloq spartakiadasi dasturida ham shu sport turi bo'yicha birinchilik o'tkazildi. 1956 yildan boshlab esa bu birinchiliklar doimiy an'anaga aylandi.

A.Atoyevning tashabbusi bilan 1964 yildan boshlab milliy kurash Buxoro

Davlat pedagogika instituti jismoniy tarbiya fakulteti o'quv rejasiga kiritildi.

1.3. Milliy kurashning ommaviylashivida halq bohodirlarining o'rne

O'zbek xalqining kurashchi-polvonlarga bo'lgan hurmati juda katta, chunki ular o'zlarida kuchlilik, mardlik, chidamlilik, ahloqiy poklik, erksevarlikni mujassamlashtiradilar.

Xorazmlik Pahlavon Mahmud (1243—1326) ning nomi tarixdan abadiy o'rin olgan. U butun umri davomida bellashuvlarda biror marta ham mag'lubiyatga uchramagan. Pahlavon Mahmud ko'pgina yurtlarga sayohat qilgan Eronda, Hivdistonda va boshqa sharq mamlakatlarida bo'lgan, O'rta Osiye bo'ylab yurgan va hamma yerda kuchli polvonlar bilan kurash tushgan. Lekin hiech qayerda na o'z Vatanida va na xorijiy yerlarda uning kuragi yerga tekkan.

Pahlavon Mahmud faqat kurashchi-polvongina emas, balki shoir, mutafakkir, har jihatdan yetuk kishi bo'lgan. Unda yuksak madaniylik, insonparvarlik va jismoniy kamolot mujassamlashgan edi.

Pahlavon Mahmud vafotidan keyin, oradan sal kam yuz yildan ko'proq vaqt o'tgach, Xorazmda yana bir kurashchi — Pahlavon Muhammad yashagan. U ham o'zining o'tmishdoshi singari mag'lubiyat nimaligini bilmagan.

Toshkentlik Ahmad polvon ham xalq orasida ancha shuhrat qozongan edi. 1895 yili Toshkentga taniqli nemis kurashchisi Rippel keladi va Ahmad polvon bilan kurashish istagini bildiradi. 1895 yil 23 iyunda sirk maydonida kurash bo'ladi hamda u o'zbek polvonining ajoyib g'alabasi bilan tugaydi. Bunda ular klassik kurash bo'yicha musobaqalashishadi. Shunisi xarakterliki, Ahmad polvon milliy kurashdan boshqa hiech qanday kurash maktabini o'tamagan edi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, u aynan klassik kurashda o'zining kuchi, chidamliligi va yuksak kurash mahorati tufayli g'ala-baga erishdi

1911 yili Ahmad polvon birinchi bor fransuzcha kurash musobaqasida ishtirok etib, Germaniya chempioni Gyugner ustidan g'alaba qozondi.

1890 yilda Toshkentda tug'ilgan Toji A'loyev sirk maydonida muvaffaqiyatli

qatnashgan. Toji Ahmad polvonning shogirdi bo'lgan. Qizig'i shundaki, klassik kurash bo'yicha maxsus tayyorgarlik ko'rmagan Toji polvon 1919 yili shu kurash turi bo'yicha o'tkazilgan musobaqada o'z og'irlik vaznida g'alabaga erishgan. 1942 yildan boshlab Toji A'loyev o'zbek sirkida o'z san'atini namoyish qila boshlaydi.

Respublikada mashhur kurashchilar juda ko'p. Mehnat Qahramoni Hakim polvon Qodirov chorak asr davomida og'ir vaznda muvaffaqiyat bilan kurash tushgan.

1937 yilda Buxoro viloyatida tug'iltan, erkin va klassik kurash, shuningdek, o'zbekcha kurash bo'yicha sport ustasi Ismoil Turobov milliy kurashning nasliy vakili hisoblanadi.

Turobovlar uchun kurash oilaviy an'anaga aylangan. Uning otasi, bobosi va amakisi avval ham mashhur polvonlar bo'lganlar. Otasi Turob Sharobov va amakisi Bahrom Sharobov milliy kurash musobaqalarida muvaffaqiyatli qatnashgan va dong taratgan polvonlar edilar. Ularning hammasi ajoyib temirchi-ustalar bo'lishgan. Buxoro amiri Amir Olimxon ularni o'z saroyida kurashchi bo'lib xizmat qilishga taklif etgan. Lekin polvonlar amirga xizmat qilishdan bosh tortganlar va uning jabrini ko'p marotaba tortishgan.

Oila an'anasi, avlodlar estafetasi Turob va Bahrom polvonlarning o'g'illariga ham o'tadi. Ismoil Turobov yoshlik chog'idayoq oilada yaxshigina mashq ko'rdi, Jismoniy jihatdan yaxshi rivojlanganlik, milliy kurash texnikasini yaxshi bilish Ismoilning katta sport maydoniga chiqishiga yo'l ochdi — u kurashning olimpiada turlarini mukammal egalladi va milliy, erkin hamda klassik kurash bo'yicha uch marta sport ustasi nomini oldi. Ismoil Turobov 1957 yili Tbilisi shahrida o'tkazilgan erqin kurash bo'yicha sobiq ittifoq birinchiligida muvaffaqiyatli qatnashdi. O'sha yili Ismoil uchun sport mahorati cho'qqilarini egallash yili bo'ldi: u Toshkent va Moskvadagi sport festivalida qatnashdi. 1958 yildan 1969 yilgacha Ismoil erkin kurash bo'yicha O'zbekiston chempioni, 1956 yildan 1960 yilgacha milliy kurash bo'yicha chempion bo'lgan.

Ismoil Turobov xalqaro maydonlarda mamlakatimizning sport sharafiga himoya qilib, sport g'alabalarining shonli yo'lini bosib o'tdi. 1961 yili Chexoslovakiya, Polsha, Bolgariya va boshqa mamlakatlar kurash-chilari ustidan g'alaba qozongan Ismoil xalqaro uchrashuv g'olibi bo'ldi va o'sha yili Afg'onistonning poytaxti — Qobulda o'tkazilgan o'rtoqlik uchrashuvida ishtirok etdi. 1959 yildan 1964 yilgacha Ismoil Turobov erkik kurash bo'yicha O'zbekiston terma jamoasining sardori bo'ldi.

Qashqadaryo viloyati o'zbek sportiga juda ko'p ajoyib kurashchi-sportchilarni tayyorlab bergan. Ulardan biri—Sayfiddin Hodiyev. U bosib o'tgan katta sport yo'li murakkab va qiyin bo'lgan. Bir kun kurash musobaqalari bo'layotgan edi. Odatga ko'ra unda faqat kattalar emas, bolalar ham ishtirok etadi. Xodiyevlar qo'shnisining o'g'li — Raim hamma bolalarni tezlik bilan yiqitar edi. O'g'lining muvaffaqiyatidan mag'rurlangan qo'shnisi Hodi akaga murojaat qildi: «Qo'shni, o'g'illaringiz nima uchun davraga chiqishmaydi? Nima, qo'rqishadimi?» Xodi aka javob berishga ulgurmasidanoq uning kichik o'g'li Sayfiddin yengilmas Raim bilan bellashishga talabgor bo'lib o'rtaga chiqdi. Albatta, Sayfiddin kichik polvondan yengildi... Tomoshabinlarning kulgusi ostida u uyiga yo'l oldi.

Ana shu birinchi bellashuv va mag'lubiyat bola uchun qiyin hamda mashaqqatli sport yo'liga turtki bo'ldi. Shu kundan boshlab u muntazam mashq qilish, kuchlilikni chaqqonlikni rivojlantirish bilan shug'ullana boshladi Sayfiddin tinmay mashq qildi. Uning g'alabalari endi hyech kimni hayratga solmas edi. U o'rta maktabni tugatib, Toshkent jismoniy tarbiya intitutiga o'qishga kirdi. Talabalik yillarida Sayfiddin sambo to'garagida shug'illanmoqchi bo'ladi. Lekin sambo uchun uning yug'irlik vazni kamlik qiladi (o'sha yillari samboda 48 kg gacha bo'lgan og'irlik vazn yo'q edi).

Shu boisdan ham u erkin kurash to'garagiga kiradi. Bu yerda Ye. B. Qoltunov murabbiylik qilar edi. Yaxshi jismoniy tayyorlik, kurash texnikasini mukammal bilish Sayfiddin Hodiyevning ikki marta: birinchi kursda yoshlar o'rtasida, ikkinchi kursda kattalar o'rtasida mamlakat chempioni nomini egallashiga imkon

berdi.

1974 yil 26 iyulda Ulan Batorda jahon chempionati ochildi. S. Hodiyeu Bolgariya, Rkpaniya, Eron, Turkiya Janubiy Koreya, Angliyaning mashhur sambochilari ustidan g'alabaga erishadi. Ammo finalda Sayfiddinni jiddiy raqib — Mongoliya chempioni, ikki marta xalqaro turnir g'olibi Shokdar Monoxul kutar edi. Uchrashuv keskin va mashaqqatli bo'ldi. Shunday bo'lsa ham o'zbek sportchisi raqibini 10:2 hisobida yengdi. U sambo bo'yicha jahon chempioni bo'ldi va jamoaga birinchi oltin medalni keltirdi.

Kurashchi Sobir Qurbonov ham katta shuhrat qozongan. 1973 yildan boshlab Sobir Qurbonovning sport biografiyasida xalqaro turnirlar va chempionatlar muhim o'rin tutadi. Madriddagi Yevropa chempionatida u fransuz Jorj Pokat, ingliz Kilray, bolgar Danov, niderland Dolman, ispan Xose Chechinlar ustidan ajoyib g'alabaga erishdi.

Yuksak mahorati va favqulodda sport texnikasi uchun Sobir Qurbonov 1974 yil Yevropa chempionati diplomi va «Ispaniya darvozasi» sovrini bilan mukofotlandi.

1974 yili Ulan Batorda o'tkazilgan xalqaro o'rtoqlik uchrashuvida Sobir Qurbonov mashhur jahon chempioni, mo'g'ul kurashchisi G. Batsux ustidan g'alabaga erishdi. Tomoshabinlar ham, Batsuxning o'zi ham Sobirni jiddiy raqib deb bilmadilar. O'rta bo'yli, sustkash, vazmin, muloyim yigit tortinchoq shogird tasuroтини berar zdi. So'zsiz, hyech kim Batsuxning g'alaba qilishiga shubhalanmas edi. Lekin Sobir Qurbonov juda ham tezkorlik bilan hujum qilib, raqibini esankiratib qo'ydi. Batsux ketma-ket berilayotgan hujumni qaytarolmay qoldi. Tezlik, chaqqonlik, kuchlilik, g'alabaga bo'lgan iroda, uyushqoqlik bu kurashda Sobir Qurbonovni xarakterlar edi. U alohida usul bilan Batsuxni yerdan ko'tarib oldi va yuqoriga ko'tarib yerga yiqitdi. Bu usul kurashda butunlay yangicha usul edi va u «Qurbonov buramasi» nomini oldi. 1975 yilning sentyabrda Minskda o'tkazilgan jahon chempionatida Sobir Qurbonov beshta sambochi, shu jumladan jahon chempioni Batsux ustidan g'alaba qo-zondi va

sambo bo'yicha jahon chempioni unvonini oldi.

Sobir Qurbonov iste'dodli kurashchigina emas, balki tajribali murabbiy hamdir. U hozirgacha ko'plab sport ustalarini tayyorlagan.

O'zbekistonda kurashish san'ati avloddan avlodga o'tib kelayotgan kurashchilar sulolasi bor. Buxoro viloyati Qorakul tumanida Yusupovlar oilasi yashaydi. Bu oilani xalq «bahodirlar oilasi» deb ataydi. Bu bejiz emas, albatta. Oilada oltita sobiq SSSR sport ustasi bor. Ularning bobosi Ro'zmat polvon afsonaviy bahodir bo'lgan, xalq uni Yengilmas deb atagan. Uning nevarasi Tursun Yusupov kuchli, epchil botir,bo'lgan. Yetti o'g'illarining hammasiga u kurash san'atini o'rgatgan. O'zi esa keksalik chog'idaham viloyatda taniqli polvon bo'lgan. O'g'illarini mashq qildirgan va ularga kurash usullarini o'rgatgan

II-BOB Kurash milliy qadriyatimiz, jismoniy madaniyat ta'lim narbiyasida undan foydalanish.

Qadriyatlar inson hayotining turli ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlarini anglatadi. Qadriyatlar moddiy va ma'naviy milliy va umuminsoniy bo'ladi.

Shu jumladan o'zbek millatining ham o'z qadriyatlari mavjud. Xususan o'zbek kurashi milliy qadriyatimiz durdonasidir. O'zbek kurashini dunyoga chiqarish bo'yicha hozirda bir qancha amaliy ishlar bajarildi. Bu o'rinda birinchi galda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Xalqaro Kurash assosiasiyasini qo'llab quvvatlash to'g'risida" 1999 yil fevraldagi farmoishi misol bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov va hukumatimiz tomonidan kurash sportini rivojlantirishni qo'llab quvvatlashi natijasida keyingi yillarda turli miqyosidagi musobaqalar tashkil qilinmoqda. Hozirda xalqaro kurash assosiasiyasi tashkil qilingan va unga 100 dan ortiq davlatlar a'zo bo'lib kirgan. 120 dan ortiq davlatlar xalqaro kurash assosiasiyasini tan oldi va hamkorlikda ish olib borilayapti. Kurashga oid o'zbekona : dakki, chala, halol, tanbeh, yonbosh, kurash, to'xta, vaqt kabi atamalar dunyo sport maydonlari bo'ylab jaranglamoqda.

Keyingi yillarda o'zbek milliy kurash federasiyasi, xalqaro kurash assosiyasi Respublika jismoniy tarbiya va sport qumitasi, Qaroqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar kurash federasiyalari hamkorlikda o'zbek kurashini rivojlantirish bo'yicha bir qator tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Mustaqillik yillarida Shaxrisabz, Buxoro, Termiz, Xiva shaharlarida an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan xalqaro xotira turnirlari kurashni rivojlanishiga xizmat qildi. Shuningdek kurashni yanada rivojlantirish borasida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi.

1999 yil 10 dekabrda 2000 yilning 10 yanvarigacha “Kurash mening iftixorim” shiori ostida kurash oyligi o’tkazildi.

“Gilamda polvonlar”, “Polvonlar qarimaydi”, “Kurash yosh tanlamaydi” shiorlari ostida qator musobaqalarning o’tkazilishi ham kurash muxlislarini befarq qoldirmadi.

Kurashni yanada targ’ib etish maqsadida “O’zbek kurashi olimpiya sari” va “O’zbek kurashini qo’llayman” mavzusida tanlovlar e’lon qilindi. Bu tanlov doimiy ravishda televideniya, radio orqali reklama qilib berildi. Tanlov yakunida o’zbek xalqining kurashiga bo’lgan mehrini yana bir bor namoyon etadi.

O’zbek kurashi Respublikamizda o’tkazilib kelinayotgan uch bosqichli sport musobaqalarida, yani; Oliy o’quv yurtlari o’rtasida “Universiada” Akademik litse va kasb-hunar kollejlari o’rtasida “Barkamol avlod” maktab o’quvchilari o’rtasida o’tkaziladigan “Umid nihollari”da o’rin egallashi, kurashimizni ommalashganini ko’rsatadi.

O’zbek kurashi bugun o’z dovrug’ini olamga yoydi. O’zbek xalqini jahonga tanitdi. Bu milliy o’yinda qo’llanilayotgan bir qator atamalar dunyoning deyarli barcha burchagida yangramoqda.

Bularning barchasini zamirida mustaqillikdan keyin o’zimizning otabobolarimizdan bizgacha qolib, meros bo’lib kelayotgan milliy qadriyatlarimizni tiklanishi bugungi kunga kelib ancha jadallashgan deyishimiz mumkin.

Shuning bilan birga o’zbek millati, o’zbek tili va boshqa milliy an’analarimizni dunyodagi ko’plab davlatlar bilishi va tan olishiga olib kelmoqda.

2.1 Yosh kurashchilarni tarbiyasida milliy qadriyatlarning tutgan o'рни.

Yosh kurashchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda milliy qadriyatlarimizdan hisoblangan Go'ro'g'lining jismoniy kuchliligi, uning jismoniy qobiliyatlari, fazilatlari, og'ir sharoitlarda sabr-bardosh bera olishi va bunga uning jismoniy tayyorgarligining yordam berishini so'zlab berish yazshi ibrat bo'ladi. Bundan tashqari Respublikamiz hududida yashab ijod qilgan, pahlavonlikning eng yaxshi namunalarini namoyon qilgan Muhammad pahlavon va pahlavon Mahmudlarning jismoniy kuch-qudratlari, ularning jismoniy va axloqiy fazilatlari haqida ma'lumot berish maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Respublikamizning sport sharafiga himoya qilib kelgan va kelayotgan yetakchi kurashchilar: Toshtemir Muxammadiyev, Sobir Qurbonov, Akobir Qurbonov, Kamol Murodov kabilar haqida so'zlab berish va aniq ma'lumotlar berish bu xalqimiz orasida jismoniy kuch qudratga ega bo'lgan avlodimizning bir-biriga ulanib ketayotgan bu o'ziga xos qonuniyat ekanligini singdirishga yordam beradi. Ikkinchidan yoshlarga kuch-qudratga ega bo'lish havasini uyg'otish bilan yoshlarning kurash bilan muntazam shug'ullanishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston xalq ta'limi vazirligining ma'lumotlariga qaraganda xalq ta'limi tizimidan "329 ta BO'SM ishlab turibdi. Bu maktablarda hozirgi zamon sporti shug'ullanuvchilardan milliy qadriyatlarimizni o'zida aks etishni, mehnatsevarlikni o'zini tuta bilishni, salbiy tuyg'ularni yenga bilishni oldiga qo'ygan maqsad yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yenga olishni talab etadi. Shuningdek, sport musobaqalarining ham ahamiyati katta. Musobaqa qoidalari sportchilarni raqib bilan qat'iy belgilangan sharoitda kurashishga majbur qiladi. Yosh kurashchidan intizomli, halol va rostgo'y bo'lishnigina emas balki, raqibi, sport hakamlarini xurmat qilishni talab etadi.

Oliy o'quv yurtlarida

Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: "Birinchiidan, oliy o'quv yurtini bitirayotganlar qanday talablarga javob berishini aniqlab olishimiz kerak.

Ikkinchiidan, bilimga chanqoq, bilim olishni o'zining maqsadi qilib qo'ygan iste'dodli bolalarni topish, tanlash, qabul qilishda obyektiv adolatli tizim va tartib o'rnatish, ular yetarli ma'lumot olish uchun barcha zamonaviy imkoniyatlarini yaratib berishimiz kerak.

Uchinchiidan, oliy o'quv yurtlarida qanday va necha xil mutaxassislar bo'yicha ta'lim berilishi lozimligini belgilab olishimiz kerak".

Prezidentimiz nutqidan ko'rinib turibdiki yoshlarga ta'lim tarbiya berishda kadrlarni tayyorlar va ular malakasini oshirishda yangicha tarkib, mazmun hamda tizimni boshqarishni shakllantirish lozimdir. Bu borada mutaxassis olimlarimizdan: Malik Murodov, U.O'raboyev, T.Usmonxo'jayev, J.E.Eshnazarov, Y.M.Masharipov, A.Atoev, X.F.Maqsudov, R.A.Abdumalikov, X.Botirov, G'.Usmonov, V.Yusupovlar o'zlarining ilmiy maqolalarida o'sib kelayotgan yosh sportchilarda milliy qadriyatni shakllantirish, jismoniy tayyorlash hamda mutaxassis kadrlar tayyorlash yo'llarini aniq ochib bergan. Shu bois bu mutaxassislarning fikrlari, amaliy va nazariy ishlari diqqatga sazovordir.

Yosh kurashchilarni ma'naviy qadriyatlarga, madaniy-tarixiy an'analarga va urf-odatlariga xurmatini shakllantirish maqsadida ulug' mutafakkirlarning tug'ulgan sanalarini munosib kutib olish ham ijobiy natija beradi.

Oliy o'quv yurtlarida jismoniy madaniyatning bosh maqsadi bo'lg'usi oliy ma'lumotli mutaxassislarni sog'lomlashtirish, jismoniy ta'lim berish, jismoniy mashqlarga qiziqtirish, jismoniy mashqlar bilan mustaqilravishda shug'ullanishga odatlantirish, sportga iqtidorli bo'lgan talabalarni sportga jalb qilish kabilarni amalga oshirishdan iborat.

Oliy o'quv yurtlarida jismoniy madaniyat bo'yicha davlat dasturining nazariy bilimlar bo'limida jismoniy madaniyatga oid bo'lgan milliy qadriyatlardan foydalanishning belgilash zarurdir. Bu borada o'tmishda xalqimizning milliy qahramoniga aylangan Alpomish uning kuch-qudrati ko'rsatgan qahramonlari Alp Rustam, Go'ro'g'li, Manguberdi, Amir Temur, Bobur va boshqalar qatorida hozirgi zamon milliy qadriyatga aylanib qolgan. Alp pahlavonlarning jismoniy kuch-qudrati jasoratlaridan ham foydalanish shu kunning talabidir.

Jismoniy madaniyat ta'lim – tarbiyasi jarayonining ma'rifiy va tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos. Kurash darslari va mashg'ulotlari, sport mashqlari va musobaqalari, ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlari, turli xil sport uchrashuvlar bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasiga qaratilgan ta'lim –tarbiya jarayonidir. Bu jarayon samaradorligini oshirish avvalo tashkilotchi – murabiylarning bilim tajribasiga, kasb tayyorgarligiga, dunyoqarashiga, shaxsiy jismoniy tayyorgarligiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, sport murabbiysi va shug'ullanuvchining bugungi ichki va tashqi dunyosini belgilab beruvchi ma'naviyati, bu ma'naviyat darajasi uning milliy va umuminsoniy qadriyatlardan nechog'liq xabardorligiga bog'liqdir.

O'z o'tmishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bilmagan inson, hech qachon komil inson bo'la olmaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda qadriyatlarga bo'lgan e'tibor nihoyatda yuksakdir. Ta'lim –tarbiyani milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib olib borish orqali uni jahon andozalariga yaqinlashtirish "O'zR Ta'lim to'g'risidagi qonuni"da va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham ko'rsatilgan

Nomdor sportchilarning ibratli hayoti, ma'naviyati, yurish turishi ko'pgina yoshlarga ibratli andoza bo'lib xizmat qilmoqda. Demak, jismoniy madaniyat ta'lim-tarbiyasi jarayonini xalq, millat e'zozlab kelgan va uning orzu –umidlarini ifodalaydigan qadriyatlar bilan boyitish g'oyat muhim omillardan biridir.

2.2 Jismoniy madaniyat va milliy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligi.

Qadriyat nima? Ularning mohiyati nimalardan iborat? Ushbu savollarga olimlar har-xil javob bergan bo'lsada ularning barchasi bir-biriga o'xshash va umumiylikka ega. Buning boisi qadriyatlar inson hayoti bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Qadriyatlarni o'rganish, ularni tahlil qilish borasida dunyo olimlari qatorida Respublika olimlari tomonidan keyingi yillarda bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Bularni ilmiy adabiyotlar maqolalar, risolalarda uchratish mumkin.

Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson bo'lmagan joyda hech bir narsaning qadr qimmatini bo'lmaydi, shuning uchun ham inson qadrini e'zozlash, hayotini himoya qilish, sog'lig'ini saqlash va mustaxkam madaniy saviyasini o'stirish, umuman olganda sog'lom turmush tarzini kechirishni ta'minlash davlatimiz siyosatini asosiy maqsadi hisoblanadi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov shunday deb takidlagan edi – “Bugungi kunda O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilib, o'zining ma'naviy qadriyatlari va aqliy salohiyatini tiklash iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda tub o'zgarishlar, ijtimoiy himoyani ko'zda tutgan huquqiy demokratik davlat poydevorini qurish davriga qadam qo'ydi”.

O'zbekiston xalqi o'zining ko'p ming yillik rivojlanish fan-madaniyati sohasida olamshumul ishlarni keyingi avlodga qadriyat sifatida meros qilib qoldirilgan va bunday qadriyat, merosdan hozirgi yoshlarimiz foydalanib baxramand bo'lib kelmoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga milliy qadriyatlarni kiritish masalasi bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Bulardan “Alpomish va Barchinoy” test norma talablari “Tumaris” Festivallari 1998 yil Surxandaryo va 2000 yil Shaxrisabzda o'tkazilishi, unda barcha viloyat sportchilari qatnashishi milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi muhim sa'y harakatlardan biri bo'ldi.

Chunki Alpomish, Barchinoy, Tumaris kabi buyuk ajdodlarimiz chaqqonlik, epchillik, kuchlilik kabi jismoniy sifatlarga ega bo'lganlari manbalarda o'z aksini topgan.

Milliy qadriyatlarimiz hisoblangan milliy kurash asosida yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Bunday qayta tiklangan milliy kurashimizdan yirik turnirlarni o'tkazilishi qadriyatimiz rivojiga katta hissa qo'shdi. Chunki milliy kurash bilan shg'ullanish bolada Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, Vatanni, oilasini himoya qilish, do'stlikka sodiqlik, bir-biriga yordam berish kabi hislatlarni tarbiyalaydi.

Millat, milliy qadriyatlarning sohibidir. Milliy qadriyatlar millatning qadri, tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, ma'naviyat hamda ma'rifat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ldi. Mustaqillik tufayli biz haqiqiy qadriyatlarimizni bilib olmoqdamiz. Xalqaro sport harakatining ilg'or tajribalariga tayangan holda O'zbekistonda jismoniy madaniyat qadriyatlar negizidagi ma'naviy –ma'rifiy madaniyat bilan sug'orilmoqda va o'z navbatida ular qadriyatlarimiz va ma'naviy – ma'rifiy jarayonlarda xizmat qilib kelmoqda.

10 yoshli o'smirlar kuch va iroda sifatlarining rivojlanganlik darajisini
aniqlash uchun testlar

Nazorat mashqlari	Natijani baholash	
	dastlabki (o'rtacha)	o'quv yili oxiriga kelib (o'rtacha)
Qo'llarni boshni orqasiga qilib, gavgani bukmasdan o'tirib turish	15 - (marta)	30 (marta)
Chalqancha yotgan holda gavgani ko'tarish (pres)	5 - (marta)	10 - (marta)
Polda yotgan holatda, qo'llarni bukib-yozish (marta)	4 - (marta)	7 - (marta)
Turnikda tortilish	2 - (marta)	3 - (marta)
To'p uchun kurashish (gilamda, tizzalarda turib, to'ldirma to'pni o'zaro ushlashdan murabbiy buyrug'i bilan to'pni egallab olish uchun kurashish) Sherik bilan 3 marta bajariladi. Har bir bellashuv vaqti va natijasi qayd qilinadi.	2 ta g'alaba	3 ta g'alaba (30-35 soniyada)

10 yoshli o'smirlar kuch va iroda sifatlarining rivojlanganlik darajisini aniqlash uchun testlar

(Milliy qadiriyalardan foydalanilgan holda.Yaniy: mashg'ulotlar davomida Pahlavon Mahmud, Ahmad polvon, Akobir Qurbonov, Toshtemir Muxammadiyev, Kamol Murodov kabi kuragi erga tegmagan paxlavonlarning erishgan natijalari,vataniga bo'lgan sadoqati,el uchun,or uchun raqiblari bilan bellashgani so'zlab berildi va shu paxlavonlardek bo'lishga chorlandi.)


Nazorat mashqlari	Natijani baholash	
	dastlabki (o'rtacha)	o'quv yili oxiriga kelib (o'rtacha)
Qo'llarni boshni orqasiga qilib, gavgani bukmasdan o'tirib turish	15 - (marta)	40 (marta)
Chalqancha yotgan holda gavgani ko'tarish (pres)	5 - (marta)	15 - (marta)
Polda yotgan holatda, qo'llarni bukib-yozish (marta)	4 - (marta)	12 - (marta)
Turnikda tortilish	2 - (marta)	5 - (marta)
To'p uchun kurashish (gilamda, tizzalarda turib, to'ldirma to'pni o'zaro ushlashdan murabbiy buyrug'i bilan to'pni egallab olish uchun kurashish) Sherik bilan 3 marta bajariladi. Har bir bellashuv vaqti va natijasi qayd qilinadi.	2 ta g'alaba	3 ta g'alaba (15-16 soniyada)

3 chi jadval

	Odatiy masg'ulotlardan an so'ng	Qadiriylatlardan fodalanib tashkil qilingan masg'ulotlardan so'ng	O'rtadagi farq
Qo'llarni boshni orqasiga qilib, gavdani bukmasdan o'tirib turish	30 (marta)	40 (marta)	10 (marta)
Chalqancha yotgan holda gavdani ko'tarish (pres)	10 - (marta)	15 - (marta)	5 (marta)
Polda yotgan holatda, qo'llarni bukib-yozish (marta)	7 -(marta)	12 - (marta)	5 (marta)
Turnikda tortilish	3 - (marta)	5 - (marta)	2 (marta)
To'p uchun kurashish (gilamda, tizzalarda turib, to'ldirma to'pni o'zaro ushlashdan murabbiy buyrug'i bilan to'pni egallab olish uchun kurashish) Sherik bilan 3 marta bajariladi. Har bir bellashuv vaqti va natijasi qayd qilinadi.	3 ta g'alaba (30-35 soniyada)	3 ta g'alaba (15-16 soniyada)	15-19 soniya

10 yoshli o'smirlar kuch va iroda sifatlarining rivojlanganlik ko'rsatgichi

- Odatiy masg'ulotlardan so'ng
- Qadiriylatlardan fodalanib tashkil qilingan masg'ulotlardan so'ng



Odatiy masg'ulotlarga nisbatan, qadiriylatlardan fodalanib tashkil qilingan masg'ulotlardan so'ng 10 yoshli o'smirlar kuch va iroda sifatlarining rivojlanganlik ko'rsatgichi 17-18 % oshganligiga guvoh bo'lamiz

Xulosa

1991 yil O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy sport turlarini jahon arenasiga olib chiqish masalasi ilk bor muhokama qilindi.

1992 yil Prezident Islom Karimov kurash mutaxassislari bilan muloqat o'tkazdi va yurtboshimiz alohida ko'rsatmalar berdilar.

Shundan so'ng, 1992 yili Kanadada o'tkazilgan «dzyu-do» bo'yicha jahon chempionati hamda «dzyu-do» federasiyasining butun jahon Kongressida ilk bor o'zbek kurashi targ'ib etildi.

1994 yilda Xirosima shahrida bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida ham kurash musobaqalaridan olingan yozma matnlar, video tasvirlar namoyish etildi.

1995 yilda esa Hindistonda o'tkazilgan «dzyu-do» federasiyasining Osiyo Kongressida kurash haqida atroflicha ma'lumot yetkazildi.

1998 yil 6-7 mar kunlari Irlandiyaning Dublin shahrida Yevropa «dzyu-do» uyushmasi taftish hay'ati yig'ini o'tkazildi. Kurash haqida yozma va video materiallar namoyish qilindi. 1998 yilning 15-18 aprelida Monako shahrida o'tkazilan «dzyu-do» uyushmasining 50 yillik yubiley Kongressga O'zbekistonlik vakillar taklif etildi. O'zbek kurashining dovrug'ini yoyishda Irlandiya olimpiya qumitasi Prezidenti, yevropa olimpiya qo'mitalari vise Prezidenti Patrik Xikining xizmatlari ham katta bo'ldi.

Tinimsiz mehnatlar natijasida 1998 yil 6 sentyabr sanasida Lotin Amerikasi, Yevropa va Osiyo qitasining 28 ta davlatidan kelgan vakillar ishtirokida Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis kongiressida Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi(KXA) xalqimizning milliy qadriyati “kurash”nomi bolan jaxon maydoniga chiqqanligi etirof etildi.

Kurash ikkita tanti, mard azamatlar o'rtasidagi ma'lum azaliy qoida asosida o'tkaziladigan bellashuv, o'zaro kuch sinashishdir qoidaning asosi esa, raqiblar bir-

birlarining kuragini yerga tekizishidan iborat. Tarixiy manbalarda hatto «Kurash» atamasining o'zi ham «kurak» yelka so'zidan olingani qayd etiladi.

Qadriyatlar moddiy, ma'naviy, milliy va umuminsoniy bo'ladi. Shu jumladan o'zbek millatining ham o'z qadriyatlari mavjud. Xususan o'zbek kurashi milliy qadriyatimiz durdonasidir. Mustaqillik yillarida Shaxrisabz, Buxoro, Termiz, Xiva shaharlarida an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan xalqaro xotira turnirlari kurashni rivojlanishiga xizmat qildi. O'zbek kurashi bugun o'z dovrug'ini olamga yoydi. O'zbek xalqini jahonga tanitdi. Bu milliy o'yinda qo'llanilayotgan bir qator atamalar dunyoning deyarli barcha burchagida yangramoqda.

Bularning barchasini zamirida mustaqillikdan keyin o'zimizning otabobolarimizdan bizgacha qolib, meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlarimizni tiklanishi bugungi kunga kelib ancha jadallashgan deyishimiz mumkin.

Kurash bilan shug'ullanuvchilardan milliy qadriyatlarimizni o'zida aks etishni, mehnatsevarlikni o'zini tuta bilishni, salbiy tuyg'ularni yenga bilishni oldiga qo'ygan maqsad yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yenga olishni talab etadi. Shuningdek, sport musobaqalarining ham ahamiyati katta. Musobaqa qoidalari sportchilarni raqib bilan qat'iy belgilangan sharoitda kurashishga majbur qiladi. Yosh kurashchidan intizomli, halol va rostgo'y bo'lishnigina emas balki, raqibi, sport hakamlarini xurmat qilishni talab etadi.

Yosh kurashchilarni ma'naviy qadriyatlarga, madaniy-tarixiy an'analarga va urfodatlariga xurmatini shakillantirish maqsadida ulug' mutafakkirlarning tug'ulgan sanalarini munosib kutib olish ham ijobiy natija beradi.

Xullas, milliy kurash – millat ko'rki, qiyofasidir. Negaki keng maydonda yurtning, elling, Vatanning dongdor polvonlari millat nomidan kurash tushadi. Millatning oriyatligi, mardligi, botirligi, yengilmas qiyofasi ham ko'p jihatdan polvonlar harakatida namayon bo'ladi. Ya'ni, hayot haqiqati kata davrlardagi mardona kurashlarda o'z ifodasini topadi. Agar kurash Mashg'ulotlarini milliy

qadiriylatlardan foydalanib tashkil qilsak, milliy kurashimiz bundan keyin yanayam shijoat bilan o'z manzili tomon dadil odimlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” Toshkent. O‘zbekiston, 1997 y.
2. Karimov I.A. “Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent. O‘zbekiston, 1998 y.
3. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” Toshkent. O‘zbekiston, 1999 y.
4. Karimov I.A. “Yuksak manaviyat yengilmas kuch” Toshkent. O‘zbekiston, 2008y
5. Karimov I.A. «Ma’naviy yuksalish yo‘lida». Toshkent. 1998 y.
6. Mustaqillik Izohli ilmiy –ommabop lug‘at. Toshkent 2006
7. A.Atoyev. “Yosh o‘smirlarga o‘zbek kurashini o‘rgatish uslubi”. Toshkent. O‘zDJTI 2005 y.
8. «Komil inson haqida to‘rt risola». Fors – tojik tilidan Najmiddin Komilov tarjimasi. Toshkent 1997 yil.
9. K.Yusupov. “Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi”. Toshkent. G‘ofur G‘ulom 2005 y.
10. F.A.Kerimov. “Sport soxasidagi ilmiy tadqiqotlar”. Toshkent. Zar qalam 2004 y.
11. F.A.Kerimov. “Sport kurashi nazariyasi va usuliyati”. Toshkent. O‘zDJTI 2005 y.
12. Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» T-1992 y.
13. T.S.Usmonxujayev, X.Meliyev “Milliy harakatli o‘yinlar” T. ‘O‘qituvchi” 2000 y.
14. O‘.Ibrohimov, H.Rafiyev «Sport va qadriyat» T-2009 y.

15. J.E.Eshnazarov «Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish» Toshkent 2008-yil.
16. Salamov R.S. “Sport mashg’ulotining nazariy asoslari”. o’quv qo’llanma Toshkent. 2005 y.
17. Kerimov.F.A, Umarov.M. “Sportda prognozlashtirish va modellashtirish”. Toshkent. 2005 y
18. Raximov.M “Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati”. Toshkent 2005 y.
19. Raximov.M.M “Sport mashg’ulotlarining nazariyasi va usuliyati asoslari” Toshkent.2005
20. Sport gazetalari.
21. Internet materiallari.